

MUHAYYO YO‘LDOSHEVA

YANGILANISHLAR MANGULIGI

Adabiy tadqiqotlar



TOSHKENT
«ADIB» NASHRIYOTI
2011

УДК: 821.512.133

ББК: 83.3(5Ў)6

Y72

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan.*

Yo'ldosheva, Muhayyo.

Y72 **Yangilanishlar manguligi: adabiy tadqiqotlar**
/M.Yo'ldosheva. —T.: ADIB nashriyoti, 2011. —88 b.

УДК: 821.512.133

ББК: 83.3(5Ў)6

ISBN 978-9943-317-48-2

© «ADIB» nashriyoti, 2011

© M. Yo'ldosheva, 2011

EZGU AN'ANA

Yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalarda mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zlarining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatlarga yoki ustoz adiblar qoshiga iymonibgina bora-yotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoirlariga aylansa, ajab emas.

Muhtaram Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak", degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas. Bugungi barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan daslabki kunlardananoq yoshlar siyosati eng birlamchi masalalardan biriga aylandi. Mana, yigirma yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo'q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash uchun yaratilgan bugungi sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'tgan 2010 yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh shoir, yozuvchi, publitsist va adabiyotshunoslarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganidan yurtdoshlarimiz yaxshi xabardor. Ezgu an'anaga aylanib ulgurgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida bu yil ham badiiy adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan iste'dodli yoshlarning ilk kitoblari nashrga tayyorlandi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu ijodkorlar "Do'rmon" ijod uyida o'tkazilgan seminarlarda tanlab-saralab olindi, qo'lyozmalar o'sha joyning o'zida - ustoz va shogirdlik an'anasi asosida qiyomiga yetkazildi.

Qo'lingizdagi mana shu kitob ham o'sha mashaqqatli va serzavq mehnatning mevasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

MOHIYATGA DOIR BIR NECHA SO‘Z

Milliy tafakkur taraqqiyotida keyingi yillarda yuz berayotgan o‘zgarishlar jahon miqyosidagi turfa ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Bu hol millatni bir xilda fikrlash majburiyati va odatidan qutultirdi. Natijada, milliy tafakkurning barcha sohaları singari o‘zbek she‘riyatining mazmun mundarijasi, shaklu shamoyili va ifoda yo‘sinida ham jiddiy evrilishlar sodir bo‘ldi. O‘tgan asrning 80–90-yillaridan e‘tiboran o‘zbek poeziyasida modern she‘riyat alohida estetik hodisaga aylandi. Ma‘lumki, XX asrning 20-yillarida ham milliy she‘riyatimiz bir qadar «modernlashish» jarayonini boshidan kechirgandi. Lekin badiiy ijodning ham partiya qarorlari singari «salobatli» va hammaga anglashilarli bo‘lishini talab qilgan sotsrealizm, tabiiy ravishda, adabiy modernizmga yo‘l bermagandi.

Aslida, adabiyot hamisha o‘zgarishlar, yangilanishlar, evrilishlar og‘ushida bo‘ladi. Unda tinimsiz o‘zgarishlardan bo‘lak o‘zgarmas jihat yo‘q. Shuning uchun ham modernizm, qaysidir ma‘noda, adabiyotning hamishalik belgilaridandir. U ko‘pchilik ko‘nikkan hamda normaga aylangan ifoda tarzi, fikr yo‘siniga zid o‘laroq doim mavjud bo‘lgan va qaytadan vujudga kelaveradi. Shu bois o‘tgan asrning so‘nggida, umuman, o‘zbek adabiyotida, xususan, she‘riyatida modern yondashuv yaqqol

ko'zga tashlanadigan holga yetdi. Modernizm o'zbek she'riyatiga shunchaki kirib kelmadi, balki hozirgi milliy poeziyaning qiyofasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi, uni o'zgartirib yubordiki, bu she'riyatga xos xususiyatlarni tadqiq qilish, uning ichki mexanizmini aniqlash, badiiyatini ta'minlagan omillarni tayin etish bugungi milliy poeziyani ilmiy tushunishning yo'llaridan biriga aylandi.

Ayrim mutaxassislar: "Bizda modern she'riyat bormi o'zi?" - deb savol berib yurgan vaqtda bu she'riyat milliy adabiyotimizning ajralmas belgilaridan biriga aylandiki, unga xos xususiyatlarni aniqlab olmay turib, zamonaviy o'zbek poeziyasining taraqqiyot tamoyillarini tayin etish mumkin bo'lmay qoldi. Bu poeziya she'rxonning she'riyat borasidagi qarashlarini ham, shoirlarning ijod yo'sinini ham, o'quvchining poetik didini ham o'zgartirib yubordi. Endi kechagiday yoza olmaydigan shoirlar shakllangani-dek, kechagi tarzda bitilgan she'rlarni o'qimaydigan o'quvchilar qatlami ham paydo bo'ldi. Shuning uchun ham hozirgi o'zbek modern she'riyatiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning milliy zaminda paydo bo'lib, milliy ruhiyat qirralarini aks ettiradigan estetik hodisa ekanini ko'rsatish, uning badiiyatini ta'minlagan omillarni tayin etish, modern poetika-ning sodir bo'lish mexanizmini muayyan shoirlarning she'rlari asosida tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Buning uchun o'zbek modern she'riyatiga xos xususiyatlar, ularning voqe bo'lish tarzi, bu she'rlar badiiyatini ta'minlagan omillar va ularda milliy ruhning ifodalanish yo'llarini ilmiy tekshirish talab etiladi. Ijodiy qiyofalari turlicha bo'lgan modern shoirlarning asarlaridagi milliylik, uning ildizlari va namoyon bo'lish tarzini tadqiq etish asnosida:

– o‘zbek modern she‘riyatiga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash;

– modern she‘riyatning ildizi va manbalarini tayin etish;

– hozirgi modern she‘riyatning badiiyatini ta‘minlagan omillarni tekshirish;

– modern yo‘nalishda yozayotgan ijodkorlarning she‘rlarida milliy ruh qanday aks etganligini ko‘rsatish;

– modern yo‘sindagi shoirlar ijodidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tadqiq etish;

– zamonaviy she‘riyatda tasavvufiy ramzlarning uch-rashi, ularning namoyon bo‘lish tarzi hamda milliy ruhni ifodalashdagi o‘rni va buning sababini tekshirish;

– ijodiy kredosi, olamni badiiy aks ettirish yo‘nalishlari turlicha bo‘lgan shoirlarning asarlari misolida modern she‘riyatning doimiy harakatda bo‘lgan va o‘zgaruvchan estetik hodisa ekanligini ko‘rsatib berish lozim bo‘ladi.

Ko‘p asrlik tarixga va shakllangan qat‘iy an‘analarga ega o‘zbek she‘riyatida modern yo‘nalish tasodifan paydo bo‘lib qolgan emas. O‘quvchilarni o‘ziga tortgan zohiriy unsurlar: sodda til, bir tekis ohang, asar boshidan oxirigacha bir xilda saqlangan vazn kabilar bugungi kunda ayrim ijodkorlarni ham, ko‘pchilik kitobxonlarni ham qoniqtirmay qoldi. Hozir barchani birday o‘ziga jalb eta oladigan hayotiy muammo ham, hammada yoppasiga ijobiy munosabat paydo qila biladigan badiiy asarning ham bo‘lishi deyarli mumkin emas. **Zotan «San‘atning og‘irlik markazi tashqaridan ichkariga ko‘chib o‘tdi: san‘atkorning vazifasi mavjud voqelikni**

tasvirlash, muhrlab qo'yish emas, balki o'z badiiy olamidan kelib chiqqan holda bu mavjudlik bilan munosabatga kirishib sub'ektiv reallik yaratishdir»¹. Adabiyot ilmi oldida turgan vazifa bu holat bilan hisoblashish, uning sababini o'rganish, undan tegishli xulosa chiqarish va izohlashdan iboratdir.

Modern she'riyatning ta'sir ko'lami g'oyat keng bo'lgani bois uni payqamaslik, e'tibor bermaslik mumkin emas edi. Binobarin, modern she'riyat haqida bir qator tadqiqotlar yaratilgani, bahslar yuzaga kelgani tabiiydir. U.Normatovning kitob va maqolalarida², O. Sharafiddinov, N.Rahimjonov, T.Jo'raev³, S.Meliev, U.Hamdammov⁴, Q.Yo'ldoshev⁵, U.Jo'raqulov⁶, Q.Qahramonov⁷,

¹ Ховардсхолм Й. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами. —Москва: 1986. С. 460.

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. —T.: «Ma'naviyat», 2000 || So'zga, so'z san'atiga shaydolik; «Sharq yulduzi», 1999, 2-son || «O'tmishdan ertaklar» va absurd. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2000 yil 14 iyul || Nazariya va adabiy-badiiy jarayon. «Jahon adabiyoti», 2000. 3-son || Shaxs jumbog'i.«O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 2001 yil 19 yanvar.

³ Jo'raev T. Modern ong oqimi. —Farg'ona: "Farg'ona", 2009.

⁴ Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. —T.: «Yangi asr avlodi», 2002. Yangilanish ehtiyoji. —T.: «Yangi asr avlodi», 2007.

⁵ Yoldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari. «Sharq yulduzi», 2001 yil 1-son || Istiqlol she'riyatidan she'riy istiqloлга. "Guliston", 2002 yil. 5-6-son. Yoniq so'z. —T.: «Yangi asr avlodi», 2006.

⁶ Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. —T.: «Yangi asr avlodi», 2006.

⁷ Qahramonov Q. Adabiy tanqid yangilanish jarayonlari. —T.: Milliy kutubxona, 2009.

I.Qurbonboyev, N.Mamatqulova⁸ singari olimlar, P.Qodirov⁹, Ch.Avaz¹⁰, Bahrom Ro‘zimuhammad, Aziz Said, Faxriyor kabi ijodkorlar, umuman, modern adabiyot, xususan, modern she‘riyat borasida o‘z qarashlarini bayon etganlar.

Modernizm hodisasi o‘zbek adabiyotida bormi yoki yo‘qmi, degan savol atrofida qizg‘in bahs-munozara ketdi. Ozod Sharaffiddinov: «Modernizm — jo‘n hodisa emas», - deya unga ehtiyotkorlik bilan yondashsa, Suvon Meliyev modern yo‘nalishni tamomila inkor etib, bu yo‘nalish o‘zbek adabiyotini buzadi, u asl badiiyatni tushunmaydigan va yaratolmaydigan ijodkorlar yo‘li deya hukm chiqaradi. Tadqiqotchi A. Hayitovning nomzodlik ishida¹¹ modern she‘riyatning ayrim jihatlariga to‘xtalangan. Shuningdek, A.Breton¹², J.Sartr¹³,

⁸ Mamatqulova N. Modern — she‘riyatda yangicha talqin. «Yoshlik», 2003 yil 4-son.

⁹ Qodirov P. Ma‘naviyat, modernizm va absurd. «O‘zAS». 2004 yil 26 mart.

¹⁰ Chori Avaz. Baxtiyorlik shu emasmi? -Qarshi: «Nasaf»,1992.

¹¹ Hayitov A. 90-yillar o‘zbek lirikasida an‘ana va shakliy izlanishlar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. —T.: 2004.

¹² Бретон А. Манифест сюрреализма. В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹³ Сартр Ж.П. Объяснение «Постороннего». В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

U.Eko¹⁴, K.Edshmid¹⁵, I.Goll¹⁶, X.Martinson¹⁷, E.Xovardsxolm¹⁸, M.Epshteyn¹⁹ singari chet ellik tadqiqotchilarning modern adabiyotga doir qarashlarida ham masalaning mohiyatini ochishga xizmat qiladigan jihatlar ko'p. Biroq bu tadqiqotlarda hozirgi o'zbek modern she'riyatining badiiy xususiyatlari va unda milliy ruhning namoyon bo'lish shakllari yaxlit holda maxsus o'rganilmagan. Holbuki, har qanday badiiy-estetik hodisa muayyan belgilarga ega bo'ladi, har bir chin badiiy asar milliy ruhni ifoda etadi va aynan shu tufayli ijtimoiy-estetik qiymat kasb etadi. Biz ushbu kitobda o'zbek modern she'riyatiga xos ana shu jihatlarni tekshirishga harakat qilamiz.

¹⁴ Эко У. Заметка к роману «Имя Розы». В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹⁵ Эдшмидт К. Экспрессионизм в поэзии. В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹⁶ Голл И. Манифест сюрреализма. В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹⁷ Мартинсон Х. Моденизм. В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹⁸ Ховардсхолм Э. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами». —М.: 1986.

¹⁹ Эпштейн М. Парадоксы новизны. —М.: «Советский писатель», 1988.

O‘ZBEK MODERN SHE‘RIYATINING GENEZISI

*Poeziya voqelikka taqlid qilish emas yoki voqelikning tafsiri ham emas, poeziya – o‘z-o‘zicha voqelikdir, voqelik bo‘lganda ham amaldagi voqelikdan ortiqroq darajadagi voqelikdir. ...Yaxshi asar – kitobxon shuurida portlaydigan bir bo‘lak siqiq voqelikdir.*¹

O‘zbek she‘riyatida ilgari ham yakkam–dukkam tarzda mavjud bo‘lgan qofiyasiz, vaznsiz, tinish belgilarisiz, imlo qoidalariga rioya qilinmay yozilgan, dastlab anglash u yoqda tursin, hatto, o‘qish ham mahol bo‘lgan asarlar bugun milliy poeziyaning qiyofasini belgilovchi omilga aylanib borayotir. Ular adabiyotshunoslikda modern she‘rlar deya ataldi va qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bir guruh adabiyotshunos olimlar o‘zbek adabiyotida ham modern she‘rlar mavjud, ammo bizga yot, singishmaydigan hodisa, deyishsa, boshqa toifa olimlar modernizmni butunlay inkor etishmoqda. Albatta, har ikki tomon ham o‘zining haqligini isbotlovchi dalillarga ega. Ammo nazarimizda, ularning qarashlari asosli emasday. Ularning bosh da‘vosi modernizmning ommaviy

¹ Xoâãðãñõî èì Ý. Moääðí èçì . || «Jahon adabiyoti», 2001. 1-son, 197-bet.

emasligi va ifoda usulining odatdagiga o'xshamasligidan iborat. Holbuki, adabiyot — isyonkor san'at ekanligi bot-bot takrorlanadi, har bir yangi badiiy hodisa nima-ningdir inkori sifatida paydo bo'lishi tan olingan haqiqatdir.

Sinchiklab qaralsa, ko'p qirralli, ziddiyatlarga boy, murakkab hodisa bo'lmish modernizm adabiyotga estetik individualizmni olib kirganligi ko'rinadi. U Botishda (G'arb)da fikrning yangicha ifodasiga bo'lgan ehtiyoj tufayli tug'ildi. Zero, XX asr boshlariga kelib, Ovro'pa ziyolilarini quruq ratsional aql, manfaatning birlamchiligiga asoslangan falsafiy qarashlar tizimi qoniqtirmay qo'ygandi. Chunki aqlning cheksiz qudrati haqidagi qarashlar u qadar to'g'ri emasligi anglab yetilgandi. Nitsشه, Shopengauer, Sartr, Breton kabi faylasuf va estetlarning qarashlari ayni shu holatga asoslanadi.

Barcha yaratiqulardan odam moddiy va jismoniy manfaat kutdi, ularga istifoda etiladigan narsa, debgina qaradi. Xuddi shu ta'mali munosabat tufayli u boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Odam aqlli, aqlli bo'lgani bois kuchli edi. U tirikchiligini o'zi mo'ljallaganiday yo'lga qo'ya boshladi. Bu hol uning o'ziga ishonchini orttirdi. Fan va texnikaning rivoji tufayli inson imkoniyatlari yanada oshdi. Odam boyroq, qudratliroq bo'la bordi. Lekin u baxtliroq bo'lolmadi. Chunki faqat aqlning o'zi odamni quruqshatib qo'ydi. U tuyg'ulardan mahrum bo'la bordi. Buning ustiga, qudratli aql ham barcha muammolarni hal qilolmasligi ayon bo'lib qoldi. To'g'ri olingan mo'ljal bilan ko'zlagan har qanday maqsadga erishish mumkin-deb

bilgan odam goh o'zi singari kuchlilar sababli, goh jamiyatda o'rnatilgan tartiblar tufayli kutilmaganda o'tib bo'lmas to'siqqa uchrab qolar va bunga hisobimning noto'g'riligi sabab bo'ldi, deb o'ylandi. Holbuki, uning xatosi, aynan, hisobining aniqligida edi. Nasibasini o'zi topishiga ishongan, ammo kutilmaganda qarshilikka yo'liqqan kishi dunyoning bema'niligi haqida o'ylay boshladi. Dastlab iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erishildi, hayot qulaylashdi, turli moddiy va jismoniy lazzat olish imkoni ortdi, tabiat hodisalari ham inson aqliga bo'sundirildi. Ammo faqat bir narsadan iboratlik, u har qancha yaxshi, mukammal bo'lmasin, kishini zeriktirib, narsaning qiymatini tushirib qo'yadi.

Nihoyat Botishda ma'naviy ustun ham zarurligi anglab yetildi. Chunki, odam ma'naviy mohiyatga ham ega borliq. Moddiy to'qlik uning barcha ehtiyojini qondira olmaydi, bari bir nimagadir chanqoqlik qolaveradi. U erishgan moddiy ne'mat, kuchli iqtisod, harbiy qudrat jamiyat a'zolarini baxtli qila olmadi: yetishga intilinadigan marraning jo'nligi, hammani qoniqtiradigan ulkan idealning yo'qligi odam uchun tiriklikni bema'nilikka – absurdga aylantirdi. U nafsi, badani istagan barcha narsaga erishib ham nomukammalligicha qolaverdi. Hatto, ehtiyojmand paytidagidan ko'ra tubanlashdi. Ruhni ham moddiy deb o'ylovchi odam qilayotgan ishining, yashayotgan umrining samarasiz emasligi, chin dunyoda bularning ajrini olishiga ishonmasdi. Inson uchun esa eng yomon jazo Sizif mashaqqatlari timsolidagi besamar mehnatdir.

Inson xohish-istaklari cheksizligi bilan imkoniyatlari chegaralanganligi o'rtasidagi nomuvofiqlik umidsizlikni

keltirib chiqardi. Bu hol ijtimoiy ongning eng ta'sirchan sohalari bo'lmish falsafa va san'atga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Falsafada tushkun qarashlar tizimi shakllanishiga, adabiyotda hayot ma'nisiz, ya'ni absurdligi aks ettiriladigan asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Shu sabab Botishda tushkunlik, umidsizlikni aks ettiradigan, alohida inson jamiyatga qarshi qo'yib tasvirlanadigan, oxir-oqibatda, shu odamning ijtimoiy tartiblar qurboni bo'lishi ko'rsatiladigan yangi (modern) adabiyot yuzaga keldi.

Zotan, oldingi adabiyot zamon nafasini aks ettirishga tutinib, odamni amalga oshmas orzular og'ushida ushlab turgani uchun his-tuyg'uni taraqqiyotning bosh kushandasi sifatida inkor eta boshlagandi. Badiiy adabiyotda ham tuyg'u emas, aql qudratini aks ettirishga urg'u berildi. Buning maqsadga muvofiq emasligini, inson manfaatiga zidligini, avvalo, ijodkorlar sezishdi. Ular o'z asarlarida Yaratganga talpinish, uning ishqida entikib yashash, vasliga intiqlik, yuksak ma'naviy-ruhiy fazilat-larni tasvirlash kamligini payqab qolishdi. Botishda g'ayb olamidan qandaydir xavotir, nedir yomonlik kutib turish ustuvor edi. Adabiyotda keng tarqalgan vampirlar, ocharvohlar tasviri boisi faqat aqli yetgan narsaga ishonish, anglab yetolmagan har qanday hodisaga shubha bilan qarashda edi. Haqiqatda ham shubha shakkoklik, hatto, shirkka olib borishi mumkin. «Gumon – imondan ayirar» naqli ham bejiz aytilmagan.

Ko'ngil ochligini qay tariqa qondirishni bilmagan, hatto, buning badanga aloqasi yo'qligini ham tan olmagan Botish modernizmi dastlab shu qiyofada edi. U

olamning mohiyatiga yetishga urina boshladi, bu yo‘lda tinimsiz izlandi, lekin buning sababi moddiylik bilan izohlanganligi natijani jo‘nlashtirdi, tobora sezilib borayotgan sovuq bo‘shliqni to‘ldiruvchi harorat manbai topilmadi. Harorat esa tuyg‘ularda, ilohiy e‘tiqod va ruhda edi. Seneka aytganiday: «mohiyatida ilohiylik mujassam asarlar boqiydir». Nihoyat, birgina aqliy bilim bilan mukammallikka erishib bo‘lmasligi anglana, bu qarash adabiyotga ham o‘ta boshladi. Asarlarda insonning taqdirga tobeligi, uni o‘zgartirish ham, undan qochib qutulish ham mumkin emasligi, iloh ishtirokisiz hech narsa yuz bermasligi tasvirlana boshlandi. Ammo Botishda ilohiy mohiyatga aql bilan yetish, uni formulaga solish mumkinligiga ishonish darajasi hamon baland edi. Ilohiy mohiyatni faqat tuyish, his qilishgina mumkinligini, bu esa ruhning ishtirokisiz imkonsizligini anglash jarayoni cho‘zilgani uchun absurd adabiyoti shakllandi. Ertadan nima kutishni, nima uchun kutishni bilmay yashash azobi odamlarni qattiqroq qiynay boshladi, ruhiy buzilish yuz berdi va nosog‘lom muhit nosog‘lom fikrlash, nosog‘lom kishilar (manyak)larni paydo qildi.

Kunbotish ruhiy holatlarning, tuyg‘ularning ildizini ongdan izlab, axloqsizlikka ro‘para bo‘ldi. Har qanday hisning ildizi insonning qondirilgan yoki qondirilmagan nafsida, deya boshlanishda juda ilohiy tuyulgan, Mohiyatni tanish yo‘liga tushganday ko‘ringan asarlar va ularda qo‘llangan juda go‘zal ramzlar, teran ishoralar, falsafiy mushohadalar natijasi yana faqat badanga taalluqliligicha qolaverdi.

Tuyg'ular chuqur bo'lsagina, chinakam asar yuzaga kelishi badiiy adabiyotning oltin qoidasidir. Aynan tuyg'ular tanqisligi tufayli ko'ngil ingichkaligi, ruh jilvalari tasviriga tug'ilgan ehtiyoj Botishni modern adabiyotga olib chiqdi. Uning vazifasi Botish ma'rifatini «hol» bilan, o'zlari atay jo'nlashtirgan tuyg'ularning asl, ilohiy mohiyati bilan tanishtirish bo'ldi.

Modern adabiyotda odamning ichki olami birinchi o'ringa qo'yiladi. Asardagi barcha narsa: ramzlar, voqealar tasviri, so'zlar, musiqiylik faqat odam ruhiyatini ochishga qaratilishi kerak degan qarash bu yo'nalish vakillari tayanadigan bosh tamoyildir. Modern ijodkorlar qo'llagan ramzlar ongli va mantiqiy, juda san'atkorona, matematik jihatdan g'oyat aniq edi. Asar tahlili ham matematik formulani yechish jarayoniga o'xshay boshladi: asar avval qismlarga bo'linadi, har bir so'z va tovush alohida-alohida ko'rib chiqiladi, ular birga uyg'otgan tuyg'u aql bilan o'lchab, mantig'ini anglashga intilinadi. Chiqish she'riyatida butun olamda va har bir odamda ko'rilgan ilohiy jilva namoyon edi. Ularda ramz tuyg'u tanqisligini bekitish uchun emas, balki tuyg'uni tuyilganidan mukammalroq qilib yetkazish uchun xizmat qilardi.

Ijodkorlarning shaxsiy kechinmalariga tayanib, uni o'ta shaxsiy yo'sinda ifoda etgani uchun ham modern she'riyat ommaviy bo'la olmadi, buni u hech qachon da'vo ham qilmaydi. Ammo bu hol uni xalqona emas va odamlarga yot deyishga asos bermaydi. Chunki **«ommaviy bo'lmagan bilan xalqona bo'lmaganning orasida farq bor. Biror yangilik olib kirgan**

usul ma'lum muddat oralig'ida xalqona bo'lishga ulgurmaydi; u ommaviy emas, shu bilan birga noxalqona ham emas»²¹.

Modernizm hodisasi badiiy zavqi boshqalarnikiga o'xshamagan odamni ko'pchilik didiga moslashish majburiyatidan qutqaradi. U estetik plyuralizm tomon yo'l boshlaydi, individual she'riyat bo'lgani uchun individual yondashuvni taqozo etadi. Olamni hammaday idrok etmaslik qusur emas, o'ziga xos shaxslikning belgisi ekanligi, barcha odatlangan shakl doim ham go'zal va mukammal bo'lavermasligi, undan qochish, uni inkor etish nafaqat mumkin, balki zarur ekanligi modernizm taklif etayotgan yo'ldir.

Mavjud voqelik nafaqat ijodkorlar, balki oddiy odamlarda ham turlicha taassurot qoldiradi. Modernizm odamlar zohiran umumiy qiyofaga ega bo'lsa-da, aslida har bir kishi atrofdagilardan butunlay farq qiladigan alohida SHAXS ekanligini, ko'rinishi, qilayotgan ishi ayni damdagi ruhiy holatiga zid kelishi mumkinligini badiiy asarga olib kirdi. Modern adabiyotning qahramonlari voqea jarayonida emas, mushohada, kechinma asnosida ko'rsatiladi. Xuddi shu jihat modern adabiyot namunalarning ommalashishiga yo'l qo'ymaydi. Badiiy asarning ravon tilda yozilishi, qiziqarli syujetga ega bo'lishi, aniq his-tuyg'uni aks ettirishiga odatlangan o'quvchi asarning asosan muallif kechinmalariga qurilishiga, bitikni

¹ Ōī nā Ī ðòáãà-è-Ããññàð. Ýñðàðèèà. Ôèèî ñî ô è ý êóëüðóðû. áããõî áí èçàòèý èñèõññòàà. -M., «Èñèõññòâî», 1991. ñò. 219.

tushunish uchun muallifning olamiga kirish zarurligiga darhol ko'nika olmaydi. Olmon faylasufi Alfred Dyoblin «*Adabiyotda ommaviy universal ishlab chiqarish bo'lishi mumkin emas. O'z kuching bilan qo'lga kiritilmagan narsani ushlab qolib bo'lmaydi*»¹ deganda ayni shuni nazarda tutgandi. Darhaqiqat, oson erishilgan har qanday yutuq, qiymatidan qat'i nazar, o'z ahamiyatini tez yo'qotadi.

Modernizm, taniqli adabiyotshunos olim Suvon Meliyev ta'kidlagani singari, e'tiqodimizga zid adabiy yo'nalish emas. Yaratgan har bir bandasiga kuzatib tushunish, tahlil qilish va tanlash imkonini bergan. Inson e'tiqodi asosida onglilik, ichki ehtiyoj yotishi lozim. Biror narsaga ajdodlar tutgan yo'l ekanligi uchungina e'tiqod qilish kishini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yishi mumkin. Bunday e'tiqodning qo'ldan chiqarilishi ham oson kechadi. Adabiyotning bosh vazifasi e'tiqod va ezgulik singari qadriyatlarga undash emas, ularga ehtiyoj uyg'otishdir. Ezgulikning aynan qaysi jihati ezgulik ekani, biror dinga nima uchun e'tiqod qilish lozimligini anglagan kishi yashashning mohiyatiga yetadi. Modern asarlarda adabiyotning mana shu bosh vazifasi o'zgacha usul, yangicha tarzda ado etilmoqda.

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanib ketgani odamlar tabiatidan ta'sirchanlikni, adabiyotdan his-tuyg'u tasvirini siqib chiqara boshladi. Ruhiy-ma'naviy hayotga

¹ Ä, áëèí Ä. Óóóóðè ñòè -âñêâÿ òãõí èêà ñëî âà. Ä êí èää «Í àçú ààòü àâü è ñâî èì è èì áí àì è». -M.: 1986. ñò 299-300.

intilish susaydi. Modern adabiyot shu holat mevasi: u odamlarga his-tuyg‘uni ular odatlangan va ortiq ko‘rishni istamagan shaklda emas, balki yangi, o‘ziga jalb etuvchi ko‘rinishda taklif etdi. Taniqli shoir Abduvali Qutbiddin o‘zining «Izohsiz lug‘at» asarida kechagi kun to‘g‘risida shunday deydi: «*Cho‘chqaga xizmatga kirding, To‘n-g‘izning amrini bajarding. Esizgina odam, qizil va sariq shoqol Ko‘z uzmay kuzatib turibdi har bir harakatingni. Ko‘zingdan, burningdan bitlar chiqmoqdalar amal-taqal qilib. Og‘zingdan semirib ketgan qurbaqa zo‘rg‘a tushayotir — kekirtagingni yorib yuborar... Esizgina odam, achinaman, afsuslanaman... Kechik-madikmikin? Odamni qutqarmoqqa*». Hech bir izohsiz ham bu misralarda qaysi tarixiy voqea, zamon hamda kimlar nazarda tutilgani ma‘lum. Dostondan olingan bu misralarni millatning o‘sha davrdagi ma‘naviyatiga nisbatan katta ayblov tarzida talqin etgan taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirov: «*Gap... xato qilgan odam haqida boradi. Shoir bu odamga achinadi, hamdard bo‘ladi, uni qutqarishni o‘ylaydi... Alohida odamga taalluqli ayblovlar butun millatga taalluqli bo‘lib chiqadi*»²³, - deb yozadi. Va modernizmning bema‘niligini mana shunda — yakka shaxsni butun millat, butun jamiyatga teng hisoblashda ko‘radi. Ammo, fikrimizcha, modern adabiyotning asosiy yutug‘i ham alohida odamda millatni ko‘rsata bilganidadir. Xuddi

²³ Qodirov P. Ma‘naviyat, modernizm va absurd. «O‘zAS». 2004 yil 26 mart.

shu xususiyati bilan modernizm adabiyotshunos S. Meliyev cho'chiyotganidek e'tiqodsizlikka emas, kishini o'z ko'ngliga teranroq nazar tashlashga undaydi.

Modern adabiyot jamiyat va alohida odamni bir-biriga zid qo'ymaydi, bu imkonsiz ham, zotan jamiyat alohida odamlardan iborat. Inson ijtimoiylashgani singari, jamiyat ham insoniylashuvi kerakligi, ommaviylik ham, yakka shaxslik ham birday zarurligi, birini yo'qotish evaziga ikkinchisi ustunlik qilmasligi lozimligi modern adabiyotni tutib turuvchi gumanistik ustundir. Modernizm tarixni inkor etmaydi, uni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Aynan talqinning, olamni idrok etish, voqealarni qabul qilishning yangiligi, o'zgachaligi yaratilgan badiiy hodi-saning modernligiga asos bo'ladi.

Voqelik va uning idrok etilishi hamisha bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Zotan, uni har kim o'zidan kelib chiqqan holda qabul etadi va tushuntiradi. Haqiqatning ham mutlaq emasligi, umuman, bu dunyoda hech narsa mutlaq va abadiy emasligi sababi ham odamlarning turlichaligidadir. Modernizm shu dalilni adabiy tajribaga tatbiq etadi.

Atrofida shuncha gap-so'z bo'layotganiga qaramay, hamon modernizm hodisasining ko'pchilikni qoniqtiradigan ilmiy ta'rifi yo'q. Aksar adabiyotlarda, asosan, u haqda umumiy tushunchalar beriladi. «**Modernizm (fr. moderne – zamonaviy) — XIX asr oxiri XX asr boshlari san'at va adabiyotida vujudga kelgan norealistik yo'nalish, oqim va uslublarning umumiy shartli nomi. Modernizmga mansub**

san'atkor va adiblar klassik, an'anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o'girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratish shiori ostida izlandilar. ...ba'zi vakillari izlanish jarayonida ijodiy yutuqlarga erishib, san'at va adabiyotdagi mavjud metod, tasviriy vosita, uslublarni boyitishga xizmat qildilar»²⁴. Ushbu izohda modern adabiyotning mohiyati nimadan iboratligi, uning ijtimoiy-estetik asoslari qayerda ekanligi ko'rsatilmagan.

Aytilganidek, modern asarlarda e'tibor voqealar bayonidan ko'ra, kechinmalar tasvirining izchilligiga qaratiladi. Modernizm badiiy adabiyotda hamma odatlangan qahramon yaratish yo'sinini rad qildi. Modern bitiklarda ilgari odatlanilganiday ijobiy yoki salbiy personajlar o'rniga, har qanday jonli odam singari, turfa jihatlarni o'zida jamlagan murakkab taqdirli inson tasvirlana boshlandi. Haqiqatan ham, odamning fe'l-atvori serqirra va o'zgaruvchan. O'tayotgan har bir onda odam o'zgaradi: shu onning ichida kishi bir soniyaga ulg'ayadi, qoni vujudini bir aylanib chiqadi, yurak urishi bittaga ko'payadi. *«Va alohida odamning hayotida ham yalt etgan lahza qaytarilmaydi. Har bir o'tkinchi kayfiyat mangu qolish uchun faqat bir martagina bo'y ko'rsatadi. Agar o'tib ketgan tuyg'uni qayta tuymoqchi bo'lsam, endi u o'zgargan holda qaytadi. San'atning vazifasi – shu o'tkinchi lahzani saqlab qolish, mangulashtirib qo'yish. San'atda har qanday tuyg'u birday qimmatga ega. Zero, ular boshqa*

**takrorlanmaydi; har biri yagonaligi bilan qadr-
lidir»¹.**

Ma'lumki, badiiy adabiyotda aks etgan biror hodisa ijtimoiy ildizdan uzilgan bo'lmaydi. Hatto, qahramon kechinmalari ifodasidangina iborat asar ham ijtimoiy — unda jamiyatda yuz berayotgan hodisalar tufayli qahramonda uyg'ongan tuyg'ular tasvirlanadi. Shuningdek, qahramon ham jamiyat a'zolari bilan bevosita yoki bilvosita muloqotga kirishadi. Ijodkor ayni shu tashqi muhit ta'sirida paydo bo'lgan hissiyotlarni badiiy tasvirlash vositasida ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatadi. Zotan, «*Adabiyot san'atlar san'atidir. Uni boshqa hech qaysi san'atga tenglashtirib bo'lmaydi. Boshqa san'atlar ixtisoslashgan, u — yo'q. Qolganlari bir tarkibli, u esa sintetik. Adabiyot san'atlarining hammasini o'z ichiga oladi*»². Bu qudrat faqat adabiyotdagina inson mohiyati, o'zligi bor bo'yicha namoyon bo'la olishi tufayli tug'iladi. U mantiq va mantiqsizlik, hissiyot va mushohada, ulug'vorlik va tubanlik, ilohiylik va soddalik uyg'unlashib ketgan badiiy so'z orqali inson ruhini anglashga intiladi. Adabiyot — borlik va yo'qlik. U insonga tegishli barcha narsaga birday bog'liq, olam esa inson uchungina qoyim. Har bir hodisa adabiyotda yuz beradi, adabiyotdan kelib chiqadi, adabiyotga qaytadi.

¹ Брюсов В.Я. Сочинения. — М.: «Художественная литература», 1987, том 2, ст. 38.

² Анри Барбюс. Золя в 1932. В книге “Называет вещи своими именами” -М.:1986

Insoniyat tarixida yuz bergan barcha muhim voqealar, unutilmas hodisalar, keskin o'zgarishlar, avvalo, ijodkor qalbida, so'ng so'zda va nihoyat, amalda namoyon bo'ladi. Ijodkorda ko'pchilikda bo'lmagan eng kichik o'zgarishni ham oldindan sezish, uning ahamiyatini teran anglash iqtidori borligining biologik yoki ijtimoiy sababini topish mushkul. Chunki iste'dod – ijodkor ongi, shuuridan tashqarida mavjud, uning kundalik ma'nosidan uzilgan, o'zgacha xislatlar kasb etgan so'zga do'nishi ilohiy, hatto, bir qadar jununvash jarayon. U – bir vaqtning o'zida tarixga ham, hozirga ham, kelajakka ham taalluqli bo'la oladi. Ijodkor hozirgi ahvolidan kelib chiqqan holda tarixdan ta'sirlanishi va shu asosda kelajakni tasavvur qilishi mumkin. Davr va iste'dod orasidagi boshqalar tushunmaydigan bu ruhiy aloqa adabiyotga turfa badiiy oqimlaru o'quvchilarga butunlay farqli ifoda uslubiga ega ijodkorlarni taqdim etadi.

«*Davr*, — yozadi adabiyotshunos olim N. Rahimjonov «Davri va o'zbek lirikasi» asarida, — *falsafiy mavzular ichida eng abstrakt xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Sababi, uning moddiylashgan konkret bir shakli yo'q. Bu abstraktlikka faqat inson faoliyatigina konkretlik baxsh eta oladi*»¹. Davrni moddiylashtirgan ijodkor uni o'quvchilarga o'zi ko'rgan yo tasavvur qilgan shaklda namoyish etadi va o'quvchi kelajak hayotni, bilib-bilmay, u belgilagan yo'nalishda qurishga intiladi. Ya'ni dastlab

¹ *Rahimjonov N.* Davri va o'zbek lirikasi. —T.: «Fan», 1979. 18-bet.

jamiyat a'zolarining ijodkor oydinlardan iborat bir qismi ongida, tafakkurida yuz bergan yangi intellektual-ijtimoiy qarashlar adabiyotga ko'chadi, badiiy so'z ta'siri yordamida jamiyatning qolgan a'zolari ongida ham yangilanish yuz ko'rsatadi, yangilangan ong, deyarli hamisha yangicha faoliyatni taqozo etadi. Binobarin, fikri o'zgargan odamlar davrni o'zlariga mos tarzda o'zgartirishadi. Demak, har qanday o'zgarishni, u qanchalar mantiqsiz, g'ayriinsoniy bo'lmasin, suyumli qilishning eng ishonchli va sinalgan yo'li uni adabiyotga ko'chirishdir.

Tashqi omil va ta'sirlarning ijodkor asarlarida qanchalar va qay qirralari bilan bo'y ko'rsatishi uning shaxsiga bog'liq. Shoir davr hodisalari paydo qilgan tuyg'ularni umuminsoniy falsafiy qarashlar bilan uyg'un holda asariga ko'chira olsa, uning ijodi davrlar osha yashayveradi. Ijodkorning kechinmalari o'z davri doirasini yorib chiqqa olmasa, uning tasviri ham davri kabi o'tkinchi bo'ladi. Inson uchun kechinmalar muhimroq. Chunki ularni tug'dirgan sabablar ham, natija ham tezlikda esdan chiqadi, o'sha paytda tuyilgan betakror tuyg'u esa bir umrga qoladi. Inson kechinmalari uning kimligi, yashagan davri, millatiyu e'tiqodidan qat'i nazar, o'zgarmas bo'ladi. Axir quvonch va qayg'u, qo'rquv va hayajon, muhabbat va nafrat, burch va mas'uliyat tuyg'ulari inson paydo bo'lganidan to hozirga qadar o'zgarmagan, o'zining ibtidoiy shaklida. Faqat ularning kelib chiqish manbalari va namoyon bo'lish shakllari har safar turlicha.

Uzluksiz evrilishdagi «...inson qalbiga doxil san'at bo'lmish adabiyot» (R.N.Guntekin) ham shundan kelib

chiqqan holda hamisha harakatda, o'zgarishda. Busiz u badiiylik xususiyatini yo'qotadi. Har xil sabablar bilan yuz ko'rsatadigan badiiy oqimlarning tinimsiz o'zgarib, yangilanib turishi shundan. Birovi o'n yil umr ko'radi, yana biri uch yilgina maydonda tura oladi, boshqasi asrlar davomida hukm suradi. XX asrda keskin evrilishlarni boshidan kechirgan o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan turli oqim va yo'nalishlar ham milliy adabiyotimizda o'z imkoni doirasida sifat yangilashlari sodir etdi, ularda iste'dod darajasi xilma-xil asarlar yaratildi. Bu yo'nalishlarning hammasi ham uzoq yashay olmadi, ularning eng sodiq tarafdorlari ham vaqti kelib qarashlarini o'zgartirdi, boshqa oqimda iste'dodini namoyon etdi. Ammo ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va «inson tashi» (R. N. Guntekin)da yuz berayotgan hodisalarga deyarli ahamiyat bermay, ko'ngil holatlarini tasvirlagan oqim — modernizm mavqeini o'tgan vaqt, o'zgargan tuzumlar faqat mustahkamladi.

Milliy adabiyotimizda modernizm bir asr mobaynida ikki bor: XX asr boshi va shu asrning so'nggi ikki dekadasi dadil maydonga chiqdi. Nega mavjud badiiy oqimlardan aynan modernizm gina shuncha vaqt mobaynida o'ziga bo'lgan qiziqishni so'ndirmay, ushlab tura oldi? Bir asrda ikki bor adabiyot rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi? Bu holga iste'dodi va tabiati shu yo'nalishda namoyon bo'lishga moyil ijodkorlar paydo bo'lgani sababmi yoki umummilliy tafakkur va tuyg'umiz bu davrlarda alohida holatga kelganmidi yoxud adabiyotimiz umumjahon estetik jarayonining uzviy bo'lagi bo'lgani uchun bu hol yuz berdimi?

XX asr boshidagi jadidlar adabiyotni ijtimoiy tuzum muammolarini hal qilishga yo'naltirganlari, badiiy so'zni estetik ko'kidan tushirib, xalq turmushi orasiga olib kirgani, boshqacha aytganda, adabiyotni ijtimoiylashtirish orqali jamiyatni badiiylashtirishga bo'lgan urinishlari bilan «modern»chilar bo'lishdi. O'sha davrlardagi «Padarkush», «Do'xtur Muhammadiyor», «Baxtsiz kuyov», «Advokatlik osonmi?», «Hind ixtilolchilari» kabi asarlar yaratilishining bosh maqsadi ijtimoiy, undan so'ng, balki, badiiy edi. Shu bois badiiy ifodaning bir necha asrlik shakllari jadidlarni qoniqtirmay qo'ygandi. Qalam ahlini qiynagan, kun tartibida turgan mavzu sifat o'zgarishiga duch kelgan, ijodkorlar odil shohlar, ilohiy muhabbat, hayotni idealdagiday tasvirlashni emas, turmushni, tuzumni butun rang-barangligi, qora va oq bo'yoqlari bilan aslidagiday, insonni faqat yuksaklikda ulug'vor qilib emas, barcha tubanliklari bilan ko'rsatish ehtiyojini sezgan edi. Va mana shu ehtiyoj, yangilangan mavzu, yangi janrlar, yangicha yondashuv adabiyotni modern qildi.

Dunyo aslida bir xil, lekin har kim uni asliday emas, ko'rganiday, his qilganiday, tasavvur etganiday qabul qiladi. Olamning aslida qandayligi faqat Yaratuvchisiga ma'lum. Shu bois ham mutlaq dunyo o'zi o'tkinchi bo'lgan inson tuyg'ularidan kelib chiqqan holda nisbiy tarzda tasvirlanadi.

XX asrga kelib jamiyatning keskin chayqalishlari inson tuyg'ularini ham keskinlashtirib, o'tkirlashtirib yubordi, mavjud tasvir vositalari bu tuyg'ular oldida ojizlik qilib qoldi: ijodkorlar uning doirasini yorib chiqa

boshlashdi. Uning barcha imkoniyatlari qo‘llab bo‘lingan, yangi ruhiyatni ifodalashga yaroqli vositalari qolmaganday edi. Zotan, shakllangan har qanday badiiy usul o‘z imkoniyatlari chegarasiga yetgach, ijodkor imkoniyatlarini cheklaydi, uni o‘z-o‘zini takrorlashga majbur etadi. Bir xillik o‘quvchini zeriktirgan, ijodkorning o‘zi ham yozish uslubidan qoniqmayotgan ayni shu damda adabiyotda yangicha yondashuvlar, iboralar, metaforalar, o‘zgacha ifoda usullari paydo bo‘ldi. Frantsuz tadqiqotchilari farang she‘riyatida sərbast vazn paydo bo‘lishining asosiy sababi qilib qofiya tanazzulini ko‘rsatishgani kabi o‘tgan asr boshi va oxiridagi o‘zbek adabiyotida ro‘y bergan o‘zgarishlar, turli badiiy tajribalar sababi ham, fikrimizcha, mazkur bir xillikdan, shakliy va g‘oyaviy yakranglikdan qochish istagi bo‘lgandi.

Inson o‘ziga tegishli barcha narsada yangilikka intiladi. U avval atrofni o‘zgartiradi, shu o‘zgarishlarni taqozo etgan yoki ular tufayli paydo bo‘lgan tuyg‘ular ifodasi orqali adabiyotni o‘zgartiradi. Va shu o‘zgargan adabiyot yana atrofni yangilaydi. Qay birining boshqasiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazishini aniqlash esa imkonsiz. O‘zbek adabiyoti ham XX asrning 10-yillarida shunday o‘zgarishlar: inson turmushini yengillatishga xizmat qiluvchi texnologiyalar rivoji va yashashni og‘irlashtiruvchi keskin ijtimoiy to‘ntarishlar bois o‘zaro qarama-qarshi tuyg‘ular orasida qoldi. Bu keskin ziddiyat insonning ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy va adabiy ildizlarini azaliy an’alardan uzib yubordi. Jamiyatda, o‘z-o‘zidan adabiyotda va adabiyot tufayli ijtimoiyotda oldingilardan tubdan farq

qiluvchi oqimlar shakllandi. Zero, insonning asl qiyofasi va nimaga loyiqligi o'tmishdan uzilgan, buguni notinch va ertasi noma'lum bo'lgan dolg'ali paytda yaqqolroq ko'rinadi. Millat tarixi va adabiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-badiiy yo'nalish — jadidchilik shu tarzda paydo bo'ldi.

Jadid adabiyoti Botishdan olgan shakliy yangiliklari, adabiyotning vazifasiga yondashuv tarzi va unda yasagan o'zgarishlari bilan modern adabiyot edi. Dunyoqarashi chiqishliklarnikidan tamomila o'zgacha bo'lgan Botish ahli va ularning turmush tarzi bilan tanishgan ijodkorlar «hayotni butun ingichkaliklari bilan» (Fitrat) realistik tarzda tasvirlay boshladi. Va bu yangilik o'zbek adabiyotiga «Uloqda» kabi hikoyalardan tortib, «Kecha va kunduz» kabi romanlargacha bo'lgan tamomila o'zgacha asarlarni taqdim etdi.

Ijtimoiy kayfiyat aks etgan bitiklar hamisha ham asl badiiyat namunasi bo'labermasligini anglagan ijodkorlar «san'at — san'at uchun» (V.Bryusov) fikrini olg'a suruvchi, «hur — erkli san'at, realizmga qattig' dushmanlig', siyosat ishlarig'a tinch va salqin qarovchi san'at» (A. Sa'diy) simbolizmga e'tibor qaratishdi. Ammo simbolizmning ham tasavvuf singari ramz vositasida fikrlashi (unli harflar rangni ifodalagan: **a** qora, **e**—oq, **i**—qizil, **u**—yashil, **o**—ko'k), hayot bilan o'limni teng ko'rishi, mohiyatni anglash uchun unga aylanish lozimligi singari tamoyillari tufayli o'ta faollashgan ijtimoiy ong tomonidan tazyiqqa uchradi.

Ijtimoiy hayotda ham, badiiy ijodda ham kutganlari bo'lmagan ijodkorlar orasida dekadans, ya'ni tushkunlikka

mayl kuchaydi. Ammo ertangi kunga ishonmaslik, o'limga intilish, inqirozni oldindan his qilib yashash, kelajakdan yorug'lik kutmaydigan tushkunlik «baxtiyor sho'ro tuzumi» a'mollariga yot bo'lganligi tufayli ta'qiqlab qo'yilgach, ijod ahliga o'z iqtidorini rus realistik maktabida qaror topgan uslubda namoyon etishdan bo'lak iloj qolmadi.

Agar uzoq davom etgan bunday zug'umdan norozilik va undan tug'ilgan chayqalish va to'lg'onish bo'lmaganda, o'zbek adabiyoti qolipga tushgan, zerikarli, zavq berolmaydigan mafkuraviy hodisaga aylangan bo'lardi. Shu ilojsizlik o'zbek adabiyotiga G'afur G'ulom, Mirtemir, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari iste'dodlarni taqdim etdi. Chunki aytishga ruxsat etilgan gapni mumkin bo'lgan badiiy shaklda, ammo o'zigagina xos ifodalashga barchaning ham chog'i kelavermaydi. Ular o'zbek she'riyatidagi chidab bo'lmaydigan darajaga yetgan bir xillikni o'zgartirib, yangi havo kiritishdi. Ijtimoiy tazyiq va u tug'dirgan chayqalishu to'lg'onishlar adabiyotni bir qolipga tushirgan, ilhom baxsh etuvchi o'tkir hissiyotlarsiz esa iste'dodlar asta-sekin so'ngan bo'lardi. Shu tarzda an'anaviy-ommaviy asarlar ortidan modern adabiyot ko'rina boshladi. Aslida modernizm adabiyotni hech qachon tark etmagan, etmaydi ham, chunki yangilanib bormaydigan adabiyot badiiyatga aloqasi yo'q quruq so'zlardir. Faqat modernizm belgilariga alohida urg'u bermagani holda uni o'z ijodi bilan jilvalantirgan, boshqa badiiy ifoda yo'nalishlari bilan birga qo'llagan ijodkorlar bo'ladi.

O'zbek she'riyatiga XX asrning yetmishinchi yillarida yangi jilva, toza ephin olib kirgan shunday ijodkorlardan

biri Rauf Parfi bo'ldi. Albatta, Rauf Parfi modernizmi quruq joyda paydo bo'lgani yo'q: she'rlarida modern tasvir uchqunlab turgan Asqad Muxtor unga ulgu bo'lgan edi. Rauf Parfi o'z ijodi bilan asr boshida Cho'lpon jilolantirgan, Oybek davom ettirishga uringan modern ifoda an'nalarini jonlantirib, mustaqil she'riy yo'nalish holatiga keltirdi. Olam va odamga o'zgacha nigoh bilan qarash, o'yu tuyg'ularni boshqacharoq ifodalashga intiladigan bir qator ijodkorlar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari tanlagan yo'llaridan hech qachon chekinmadilar, boshqalari vaqti-vaqti bilan an'anaviy yo'sinda ham qalam surdilar.

Rauf Parfi va uning atrofidagi shoirlar nafaqat ifoda vositalarini, balki ifodalanayotgan tuyg'ular tizimini ham yangiladilar, ularni o'quvchiga eng nurli va eng zabun sarhadlarida yetkazdilar. Albatta, bu she'riyat ommalashib ketmadi, millionlab muxlislarga ega bo'lmadi. Bunday bo'la olmas va bu ko'zda tutilmagan ham edi. Chunki hamma zamonlarda ham tiyrak, nozik tuyg'uli o'quvchilar kamroq bo'ladi. Rauf Parfining: «*Ko'rib turib, seni ko'rmadim*», «*Tillaring yam-yashil yaproq singari...*», «*Daryoga lim to'lib jasadim oqar...*», «*Kiprigimda suyuq hayajon, Ko'zlarimda yumaloq sevgi*», «*Kresloga tashlab qo'ydim o'zimni*» kabi tamsillarini anglash she'rxondan jiddiy badiiy tayyorlikni talab qiladi. Shoir cho'g'lantirgan o'zbek modern she'riyati o'tgan yillar davomida durustgina qizishib, XX asrning 80-90-yillariga kelib o'ziga xos poetik alangaga evrildi. Natijada, o'zbek she'riyati ko'p tarkibli, murakkab obrazlarga boy nazmga aylandi. Modern

she'riyat o'z holicha yaxshi ham, yomon ham bo'lolmaydi. Negaki, modern yo'lda shedeвр asarlar yozish mumkin bo'lganiday, g'arib bitiklar ham yuzaga keltirish mumkin. Gap yo'nalishda emas, iste'dodning cho'g'langanlik darajasidadir.

XX asr oxirlarida yuz bergan ijtimoiy va fikriy o'zgarishlar o'zbek adabiyotida qaror topgan muntazamlilikni buzib yubordi. Asr boshida odamning ijtimoiy o'rni, ma'rifiy darajasini bosh muammo deb bilgan adabiyot asr so'ngida insonning ichiga, ko'ngliga bo'ylay boshladi. Demak, adabiyot yangilandi. Yangiliklar ham tasvir ob'ektiga, ham ifoda tarziga taalluqli bo'ldi. Adabiyot ob'ektini aslida bo'lganidan ko'ra tuyilganiday tasvirlashga tutindi. Buning natijasida, **«...voqelik – ob'ektning rang-barang botiniy olami jilva qilib, ko'zlarni qamashtira boshladi. Modernizm ob'ekt bilan emas, balki sub'ekt bilan astoydil shug'ullana boshladi»¹**. Shu yo'sin o'zbek adabiyotida modern yo'nalish qaror topdi. Aslida ham olamdagi barcha narsalar haqidagi tushunchalar nisbiy, kimning qanday qarayotganiga bog'liq tarzda, ya'ni sub'ekt talqini doirasida mavjud. Nitsshe aytgani kabi: **«Hech qanday faktlar mavjud emas, balki ularning talqini, in'ikosigina bor»**.

Modern ijodkorlar har bir odamga alohida individium debgina yondashdi. Shu paytga qadar ijtimoiy tabaqa vakili sanalib kelgan inson shaxsi ular ijodida teranlashdi.

¹ Александр Генис. «XX asrning yetakchi uslubi» || «Jahon adabiyoti». 2001. №11.

Shu sabab bu adabiyot ham, uning qahramonlariyu o'quvchilari ham ommaviy bo'lolmaydi. U — faqat alohida shaxsning takrorlanmas tuyg'u va o'ylarini tasvirlovchi individual adabiyot bo'lishga mahkum. Har qanday **«ijtimoiy harakat, fanniy tushunchalarga qarshi oqim sifatida yuzaga kelgan»** (Fitrat) modernizm voqeaning o'ziga emas, u uyg'otadigan his, qoldiradigan taassurot, tug'diradigan kayfiyatlarga ko'proq ahamiyat berib, hissiy kechinma vositasida badiiy voqelik yaratadi. Bu esa she'riyatning asl vazifasi va har bir shoir intiladigan marra edi. Olmon faylasufi Kant ta'kidlaganidek: **«...she'riyatdagi tashbihlar shakl yoki narsalarni aniqlashtirishga emas, balki tasavvur tug'dirishga va uni harakatga keltirishga xizmat qilishi lozim»**. Shu talablarga javob bera olgani bois modernizm ijodkorga erkinlik beradi, uni har qanday cheklolvlardan xoli etadi. Modern adiblar ba'zan shaxs hurligini cheklaydi, deya fan, ratsional aql va formal mantiqni tan olishmas, kishi ruhiy imkoniyatlarini eng yuqori martabaga ko'taruvchi his-tuyg'uni ustun ko'rishardi va «san'atda metodga o'rin yo'q, undan aqlsizlik yaxshi»¹ deb hisoblashardi. Modernizm tuyg'u ifodasini emas, balki tuyg'uning o'zini ham yangiladi. U yangicha hissiyotni yangicha tarzda bera bilish san'atiga aylandi.

O'quvchining modern asarlarni ovoz chiqarib o'qish va birovga o'zi anglagandek qilib yetkaza bilish imkonidan

¹ Дёблин А. Футуристическая техника слова. В книге «Называть вещи своими именами». — М.: 1986, ст. 299.

deyarli mahrum etilishi asar mutolaasini ko'ngil bilan yakkama-yakka qolishni talab qiladigan intim hodisaga aylantirdi. She'riyat quloqdan ko'ngilga ko'chirildi. Aslida ham, o'quvchiga faqat eshittirish emas, unga tuydirish, ko'rsatish, ko'rganlari ortidagi tagma'noni ilg'ata bilish vaqti kelgandi. Shu yo'sinda o'quvchi badiiy matnga «bog'lab» qo'yildi:

Bulbullar (aylana) sayrar bahorda,
tabiat hukmi shu,
(sayroq qirralari)ni
Egovlab tashlaydi gulning chiroyi.
Dunyodagi eng go'zal shakl — (gulning chiroyi).

Va shoirlar uchun tuyg'uni so'zlarda ifodalash ham so'zlarni tuyg'u mohiyatini to'laroq anglatadigan shaklda joylashtirish (vizuallik) ham yetarli bo'lmay qoldi, endi ijodkorlar shakllarning o'zini she'riyatga olib kira boshladi.

Butun olam — anglanishi zarur bo'lgan qobiq. U aql bilan idrok etilganidan tashqari, qalb bilan tuyulgandagina voqelikning mohiyati o'quvchiga ayon bo'ladi. Modern adabiyot ham voqelik mohiyatini anglash uchun har safar yangi usul qo'lladi, nazarini voqelikdan insonga emas, insondan borliqqa, ya'ni sub'ektdan ob'ektga qaratdi. Uning bosh tamoyili muallif tasavvuridagi voqelikni dastlabki ma'nosini yo'qotgan so'zga ko'chirishdan iborat bo'lib qoldi. Modern asarlar matnida tayyor voqelik modeli o'rniga u uyg'otgan tuyg'ular mavjudligi ularni tasavvurni boyituvchi badiiy mahsulotga aylantiradi. Ya'ni modernizm

faqat hazm qilishi kerak bo'lgan tayyor mahsulotni yutishga o'rgangan o'quvchiga hosil unib chiqishi mumkin bo'lgan urug'ni taklif etadi. Boshqacha aytganda, muhtojga baliq bermasdan, qarmoq beradi. Zero, ifodalash imkonsiz bo'lgan tuyg'ular sarhadiga yetgan ijodkor tilga olinmagan narsalarni tushuntirib o'tirmay, ularga ishora qilib, narsalar haqida ularning tilidan hikoya qiladi. Natijada, kitobxon yozuvchi hamkoriga aylanishga, muallif boshlagan ijodiy ishni o'z imkoniga yarasha davom ettirishga majbur bo'ladi. **«Modernizm har bir odamga yangilik bilan birga o'zlashadigan o'ziga xoslikdir. Uning mohiyatini doimiy o'zgarishdagi irratsionalizm: inson ko'ksida yonib turgan olov tashkil qiladi»¹**. Vaqt o'tishi bilan har qanday yangilikka ko'nikish mumkin. Shu kabi dastlab o'zgacha ko'ringan modern she'rlar ham o'zlashgach, an'anaviy tuyula boshlar. **«U maishiy bo'lishi, jonga tegishi mumkin, ammo hech qachon eski izdan yurmaydi. Modernizm... barcha zamonni yengib o'tadi»²**. Ammo ayni damda har qanday adabiy oqim mahsulotiga qo'yiladigan birinchi talab — badiiylik modern adabiyot uchun ham asosiy talabdir. Modern she'rdan misralardagi bo'g'inlar soni teng bo'lishi, qat'iy vaznda yozilishini, qofiya va radifga ega bo'lishi talab qilinmagani holda undan yuksak badiiyat kutiladi.

¹ *Мартинсон* Х. Модернизм. В книге «Называть вещи своими именами» —Москва, 1986. ст. 421.

² *Мартинсон* Х. Модернизм В книге «Называть вещи своими именами» —Москва, 1986. ст. 421.

Jamiyatda ro'y berayotgan shiddatli o'zgarishlar, texnik taraqqiyot tufayli globallashtirilgan yashash tarzi, nur tezligidagi axborot oqimi odamzod shu paytgacha tayanib kelgan barcha qadriyatlarni aralashtirib yubordi. Chet tilini o'z tiliday biladigan, g'arbona yashabgina qolmay, g'arbona o'ylash yo'sinini ham egallagan, ayni vaqtda, o'zbekligini unutmagan zamondosh adiblar adabiyotni badiiylarning hamishalik qoliplarini buzgan holda badiiy va butun insoniyatga tegishli bo'lgan holda milliy qilishga intilayotir. Va xuddi shu urinish — milliy qiyofa, o'ziga xos ruhiyat tasviri badiiy adabiyot umrzoqligini ta'minlaydi. Davr ijodkor uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, u davr ruhiga zid tarbiyalangan bo'lishi yoki tabiatidan kelib chiqqan holda uni inkor etishi ham mumkin. Milliylik esa davrning tashqi jihatlaridan farqli o'laroq, ichki — ruhoniy hodisa, etnik, biologik, yuridik, siyosiy tushuncha bo'lishdan avval, birinchi navbatda, ruhoniy tushunchadir. Milliylik har bir odam va butun elning tashqi qiyofasida emas, aynan ruhida mavjud va o'zini biror millatga mansub his qilgan kishigina o'sha millat vakili bo'ladi. Shu tuyg'u bor ekan, hech qanday texnogen jamiyatni kosmopolit qarashlar begona ruhiyatni tiqishtira olmaydi.

Olamni eng kutilmagan jihatlarigacha aks ettiradigan ijtimoiy-estetik ko'zgu bo'lmish adabiyot milliy qiyofasiz mavjud bo'la olmaydi. L.N.Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Natasha Rostova o'quvchini birinchi navbatda rus qizlarigagina xos xislatlari bilan maftun etadi. To'g'ri, roman urushning behudaligi, u yengganga

ham, yengilganga ham faqat uqubat keltirishini aks ettirishi, muhabbat, hasad, e'tirof kabi umuminsoniy, o'lmas tuyg'ularning go'zal ifodalagani bilanoq o'z shuhratini ta'minlagan. Ammo aynan har bir qahramonda sezilib turadigan, uning harakatlarini boshqa millat o'quvchisi uchun sirli, kutilmagan qiladigan milliy o'ziga xoslik asarni jahon adabiyoti durdonalaridan biriga aylantirgandi.

Yakuni ma'lum bo'lgan asar voqealar yig'indisi yoki ularning bayonigina, xolos. Uni jozibali sirlilik, o'zgachalik badiiy qiladi va bularni milliy qiyofa ta'minlaydi. She'rda tasvir asosini nasrdagi kabi voqea-hodisalar emas, balki ular ta'sirida paydo bo'lgan oniy tuyg'u, lahzalik holat, muvaqqat kechinmalar tashkil qiladi. Unda syujet bo'rtib, zohiriy jihatlari bilan namoyon bo'lib turmaydi. Aksincha, syujet bo'ladigan voqeani o'quvchining o'zi she'rdan tuygan tuyg'ularga tayangan tarzda sodir etishi lozim. She'r xuddi shu jihati — o'quvchiga tasavvur qilish, mantiq va hissiyotni uyg'unlashtirish imkonini berishi bilan nasrdan ajralib turadi.

She'r — maxsus nutq shakli, u — eng muvofiq tartibda joylashtirilgan eng munosib so'zlar yig'indisi. Unga qo'yiladigan barcha talablar nisbiy. Biroq she'r qaddini tutib turadigan ba'zi unsurlar borki, ularsiz she'r chiroyli so'zlar maqbarasi bo'lib qoladi, xolos. Bu, avallo, she'rdagi ruh, undagi mayda tuyg'ularga qarshi, faqat yuksalishga chorlaguvchi isyon.

Bir she'r yozib bag'riga cho'ksam,
Dunyolarni unutib bir on.

Dardlarimni birma-bir to'ksam,
Botinimda qolmasa isyon³².

She'riyat yaratilgan jonli vujud va shu bois uni qayta ishlashga ehtiyoj yo'qdir. Shoir qo'llamoqchi bo'lgan so'zlarga xos qonuniyatlarni intuitiv tarzda biladi. She'riy nutq kimga murojaat qilinayotganiga bog'liq tarzda o'zgaradi. Bu tabiiy, negaki, shoir yoriga ham, dengizga ham, baliqqa ham, Yaratuvchisiga ham bir xil munosabatda bo'la olmaydi. She'riy nutq to'la anglanishi va qabul qilinishi uchun shoir tasvirlanayotgan ob'ektni yaqqol tasavvur qilishi, u bilan oralaridagi mushtaraklikni ko'ra olishi hamda aloqa o'rnatishga imkon beruvchi vositani ilg'ay bilishi kerak.

She'r yozilish jarayoni shu qadar murakkabki, ko'pchilikka u mo'jizali, ilohiy tuyuladi. Negaki, she'rga turtki bo'lgan hodisaga ko'pchilik guvoh bo'lishi mumkin, lekin u faqat birgina kishida she'riy tuyg'u uyg'otadi. Shoir o'z boshidan kechirgan tuyg'ular, dilining tubigacha larzaga solgan hodisalar, qalbida o'chmas iz qoldirgan kechinmalarsiz haqiqiy shoir bo'la olmaydi. Shoir shaxsiyati takomili maxsus sharoit, dolg'ali davr talab qiladigan murakkab, shu bilan birga tabiiy jarayondir. Zero, keskin ijtimoiy o'zgarishlar natijasida shoirda paydo bo'lgan hislar bo'roni uning vujudida mudrab yotgan ijodiy imkoniyatlarni uyg'otadi. Ammo dolg'ali davrning o'zigina iste'dodni dahoga aylantira olmaydi. Buning uchun tug'ilganidan to shoir sifatida shakllanganiga qadar olgan uzluksiz

¹ *Ulug'bek Hamdam*. Tangriga eltuvchi isyon. —T.: «Yangi asr avlodi», 2001. 15-bet.

taassurotlaridan kelib chiqadigan, o'zida o'tmish, hozirgi payt va kelajak tuyg'ularini jamlagan hayotiy tajriba zarur.

«*She'r yozishning hech bir qoidasi bo'lmaydi, aksincha, she'riy qoidalarni yaratadigan odamga shoir deyiladi*»¹. Shoirlar bo'ysunadigan umumiy she'riy qonun-qoidalar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki hech bir odam, ular, hatto, egizak bo'lishsa-da, bir-birini takrorlamaydi, bir muhit-sharoitda voyaga yetishsa-da, fe'l-atvor, dunyoqarash, tafakkur tarzlari tamomila o'zgacha bo'ladi. Shu kabi shoirlarning ham olam hodisalariga yondashuv va uni she'rda ifodalash usullari o'zgacha, har bir shoir boshqasi qo'llay olmaydigan o'z she'riy qonuniga – kashfiyoti, shaxsiy qoidasiga ega. U bu qonunlarni o'z kuzatuvlariga asoslangan holda yaratadi va shu sababli hech bir asl shoirning yozish, ifodalash usuli, tasvir mahorati boshqasirikiga o'xshamaydi. Masalan, turli avlodlarga mansub ikki shoirning muhabbat haqidagi she'r-larini solishtirsak:

O'ylarim so'ngiga yetmadi,
Tushlarim o'ngiga ketmadi,
Gung taqdir bir Visol bitmadi,
Sensiz men g'aribman to abad
Muhabbat,
muhabbat,
muhabbat...²

¹ *Маяковский В.В. Как делать стихи?* – Москва: 1952.

² *Ulug'bek Hamdam. Tangriga eltuvchi isyon. – T.: Yangi asr avlodi», 2001. 22-bet.*

Xuddi shunday ruhdagi misralar Azim Suyun ijodida ham uchraydi:

Qahraton shimolning ayozin totdim,
To'ngan tarashaday yotdim, muz qotdim.
O'lmadim – tanimga berdi harorat –
Muhabbat, muhabbat, muhabbat¹.

Qanchalar o'xshash. Hatto, band oxiridagi misra «Muhabbat, muhabbat, muhabbat» shaklidagi bir xil so'zlardan iborat. Ammo mavzuga yondashuv tarzi, tuyg'uni ifodalash yo'sini orasidagi farq bo'rtib turadi. Azim Suyun she'rida tasvir oddiy, sodda, hatto, dag'a-lroq, shu bilan birga go'zal. She'r texnikasi ham o'zga-cha: dastlabki ikki misra huzunini jarangsiz «sh» tovushi ifodalagan – shimol, tarasha. Ikkinchi misra esa ichki ohangga, qofiyaga ega – yotdim, qotdim. Azoblarni bildirayotgan ikki satrdan so'ng yengillik, tiriklik, uyg'oqlik ruhini namoyish etuvchi yakuniy qism keladi. Satr mazmuniga ko'ra uning qofiyalanishi ham dastlabki ikki misralarnikidan alohida, ularni, demakki, hazin kayfiyatni davom ettirmaydi. Soddagina ulug'vorlikning betakror namunasi.

Ulug'bek Hamdam she'rida inkor qo'shimchasi belgi-lovchi ahamiyatga ega: yetmadi, ketmadi, bitmadi (A. Suyunda — totdim, qotdim). Obrazlar tizimi ham (gung taqdir, g'arib), holat ham (O'ylarim so'ngiga yetmadi,

¹ Azim Suyun. Saylanma. –T.: «Sharq», 1997.

Tushlarim o'ngiga ketmadi) Azim Suyun (harorat) she'riga nisbatan birmuncha pessimistik. To'g'ri, bu shoirda ham inkor (o'lmadim) bor va undan ijodkor bardamligi, umidvorligi ufurib turadi.

Shoir mahorati — she'riy muntazamlilik, ichki qonuniyatlarga bo'ysungan holda nutq tabiiyligini saqlashda ko'rinadi. Undagi biror narsa: biror so'z, uning joylashuv tartibi, urg'u, ohang, ega yo kesim shakli o'zgartirilguday bo'lsa, butun she'rga putur yetadi, tabiiylik buzilib, zo'rakilik, sun'iylik yuzaga keladi. She'r butun, tayyor holda tug'iladi, uning mukammalligi esa shoir tafakkuri teranligi, hissiyotining ko'lami, tuyg'ularining o'ziga xosligiga bog'liq. She'riy tafakkuri yuksak bo'lgan shoir she'rlari quyma, tayyor holda tug'iladi. Shoir, hatto, she'rning botiniy mazmuniga mos keladigan vaznda his etadi va o'ylaydi. She'riy tafakkuri zaif shoirning she'rlarida esa ravonlik, nutqiy erkinlik sezilmaydi. Bunda iste'doddan ko'ra ustakorlik ustun bo'ladi va she'r ham dilga yaqin emas, sun'iy, zo'raki chiqadi. Mahorat juda zarur narsa, lekin u she'r bilan birga yaxlit tug'ilishi, she'riy nutqning tabiiy yo'nalishini buzmasligi kerak. She'riy musiqa, tovushlar ohangdoshligi badiiy zaiflikni yashirishga emas, balki asar uyg'unligi va musiqiyiligini ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Mahorat va iste'dod bir-birini inkor etmasligi, aksincha, bir-birini to'ldirib kelishi zarurligi she'riyatning bosh talablaridan biridir.

Ko'zga tashlanmaydigan, yashirilgan she'riy mahorat badiiyat uchun juda muhim. O'quvchida she'r o'z-o'zidan tug'ilganday, hech qanday tasviriy vosita (ohang-

dosh soʻzlar, har misradagi teng hijolar, urgʻular tartibi kabi) qoʻllanmaganday taassurot uygʻonsa, badiiy taʼsir ortadi. Bunday mukammal sheʼrlarda shakl va mazmun birday goʻzal, boy, ular bir-birini toʻldirib keladi. Shakl betakror mazmun ortida qolganday koʻrinadi, lekin aynan shakl mazmun jozibasini taʼminlaydi. Bu yerda shakl deyilganda, ohangdosh tovushlar, qofiya, unli va undoshlar uygʻunligi kabilar nazarda tutilmoqda.

Shakl – asarning tashqi unsurlari, uni tashkil qilgan tovushlar, tovush takrori, ohang, ritm, soʻzlar, ularning uygʻunligi, sanʼatlar, alohida sheʼriy boʻlaklarning oʻzaro bogʻliqligi. Mazmun – tabiiy ravishda quyilib kelgan muayyan ichki oʻlchovga, musiqiylikka ega boʻlgan, shoirning shaxsiy qoidalariga muvofiq tartibda joylashtirilgan, biror hayotiy hodisa paydo boʻlgan fikr, tuygʻu, intilish, odamlar timsoli, narsa-hodisalar, tabiat va h.k.lar tasviri. Shakl va mazmun tushunchalari oʻzaro chambarchas bogʻliqdir. Sheʼrni faqat shaklan yoki mazmunan anglab boʻlmaydi, chunki ular biri ikkinchisiz mavjud boʻla olmaydigan aslan birlamchi tushunchalardir. Har bir shaklning u ega boʻlgan maʼnosi bor va bu maʼno asar mazmunini tashkil qiladi. Biz shaklni qabul qilish bilan mazmunni anglab etamiz. Yaxlit badiiy asarni shakl va mazmun deya ikki qismga ajratib oʻrganish notoʻgʻri boʻlar edi. Mazmun baʼzilar oʻylaganday, koʻzga koʻrinmas boʻlmaydi, agar shunday boʻlganida asar mazmuni mavhumligicha qolib ketardi, uni oʻrganish mumkin boʻlmas edi.

Sheʼrning shakli soʻzdir, lekin biz bilgan oddiy soʻz emas, balki shoirning ijod ustaxonasida ishlov berilgan,

zimmasiga badiiy vazifalar yuklangan she'riy so'zdir. She'riy mazmun esa o'sha so'zlar anglatgan ma'nodir. She'rning xomashyosi shoir kechinmasi, his-tuyg'usini o'zida jamlagan she'riy so'z hisoblanadi. Shoir o'z asarida shu ikki jihatni birlashtirib uyg'unlik yarata olsagina asl shoir sanaladi.

Har bir odam o'ziga xos ko'ngilga ega bo'ladi, boshqalarnikidan farqli muhitda voyaga etadi. Shoirnlarni shoir qilgan xislat aynan nihoyatda kuchli individuallik tuyg'usi deyish mumkin. Har bir ijodkor o'zini qiynagan yo quvontirgan, umuman, ko'nglini bezovta qilgan tuyg'ularni o'zigagina xos yo'sinda aks ettiradi. Shoir she'rda tuyg'uni ifodalamaydi, balki yaratadi, shu bois she'rdagi so'zlar tartibi o'zgartirilsa ham, ruh yo'qoladi. O'qiganda tuyiladigan zavq, ko'tarinkilik, tushkunlik, ta'sirchanlik g'oyib bo'ladi. Demak, tabiiy, quyma she'riy shakliga mazmunning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Chunki **«She'riyat betakror shakl va betakror mazmunning jonli birligidir...»¹**.

Aytilganlardan kelib chiqib, modern she'r shoirning odatiy mantiqdan tashqaridagi tasavvur va hissiyotlari mahsuli bo'lib, majozga asoslanadi, badiiyatning xususiy qonuniyatlariga tayanadi, unda so'z dastlabki ma'nosidan uzilib, yashirin ma'noga ega bo'ladi, har bir o'quvchi tomonidan xususiy tarzda idrok etilib, undan nozik badiiy

¹ *Кожинев В.В.* Как пишут стихи. —М.: , “Просвещение” 1970.

did va chuqur bilim talab qiladi, ba'zan qofiyasiz, tinish belgilarisiz, imlo qoidalariga rioya qilinmay yozilgan bo'ladi deyish mumkin.

Aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Millat va jamiyat hayotida ro'y bergan shiddatli o'zgarishlar ijodkor uchun ham, o'quvchi uchun ham modern she'riyatni estetik ehtiyojga aylantiradi.

2. Modern she'riyat alohida shaxsning takrorlanmas tuyg'u va o'ylarini betakror yo'sinda ifodalashga qaratilgan individual adabiy yo'nalishdir.

3. Modern she'rlarni jamoa bo'lib o'qib bo'lmaydi, u o'quvchidan ko'ngil bilan yakka qolishni talab qiladi va bu hol badiiy didni o'stiradi.

4. O'zbek modern she'riyatida tuyg'u ifodasigina emas, balki tuyg'uning o'zi ham yangilandi.

5. Modern she'riyatda borliqdan nusxa ko'chirilmaydi, balki kechinma tasviri vositasida badiiy voqelik yaratiladi.

6. O'zbek modern she'riyati milliy qiyofaga egadir. Modern she'riyatning milliyligi uning tashqi belgilarida emas, balki ichki qurilishi, aks etgan sezimlar tizimida namoyon bo'ladi.

POETIK YANGILANISHLAR MOHIYATI

Adabiyotshunosligimizda she'r ilmiga alohida e'tibor bilan yondashish an'anasi azaldan mavjud. Adabiyotimizda paydo bo'lgan har bir o'ziga xos shoir va uning ijodi haqida tanqidchilar tomonidan fikr-mulohazalar bildirib kelingan. Shunday bo'lsada, chin iste'dod va uning mahsuli bo'lmish she'riyatni oxirigacha anglab yetish, u haqda mutlaq fikr bildirish imkonsiz. Buning boisi iste'dodning betakrorligida, uni berish mumkin bo'lmaganidek, olib qo'yishning ham iloji yo'qligida, boshqarish esa mutlaqo mumkin emasligidadir. Shoir istagani uchun emas, shoir bo'lib tug'ilgani sabab va ko'ngliga kelganiday emas, «*qofiyalar bilan qurollangan, to'g'ri hijolarga bo'lingan shaklda*»¹ quyilib kelganiday she'r yozadi.

Shoirlik iste'dodi tug'maligi ijodkorning hassos, ta'sirchan bo'lishi, so'z mohiyatini g'ayrishiuriy tarzda ham to'g'ri anglay olishi va uni xuddi shu yerda shu so'zlardan keyin qo'llashi kerakligini ilg'ay bilishi, nutq va asab tizimining o'ziga xos ishlash qobiliyatiga egaligida namoyon bo'ladi. Bolalikni, bolalarga xos hayratni saqlay olish iste'dod so'nmasligiga kafolotdir. Ijtimoiy-axloqiy

¹ *А.Пушкин. Египетские ночи. —Москва: 1923.*

cheklashlardan xoli, ta'sirchan va asosiysi, uchqur tasavvurli bolagina she'r matnini shaklan va mazmunan uyg'unlashib ketgan jonli so'z sifatida qabul qiladi. Va shoirgina bolalikdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda boshqa cheklovlardan yuqori turish, ta'sirchanlik va boy tasavvur qobiliyatini o'zgarishsiz saqlab qola biladi. Bu shoirlikning bosh talablaridan biridir, zero **«bolalikda, hali hech qanday cheklovlar yo'qligida inson bir paytda bir necha hayotda yashash imkoniga ega bo'ladi va u bu xayolotga to'lig'icha cho'madi»**¹. Barcha shoirga xos bu xususiyatlar har bir ijodkorda o'zgacha yo'sinda namoyon bo'ladi.

Adabiyot bolalik dunyosi bilangina joziba kasb etadi, chunki formal mantiqqa asoslanmagani holda o'ziga xos mantiqli tasavvur badiiyatning asosiy unsurlaridandir. Biror qonuniyatga amal qilib yaratilgan asar, ko'pincha, o'lik bo'ladi. XX asr oxiri she'riyatida ana shu holat teran ilg'ab yetildi. Albatta, ungacha ham o'zbek adabiyotida bunday tasvir yo'sini yo'q emasdi. Ammo u milliy she'riyat qiyofasini belgilab beruvchi tamoyil darajasiga yetmagandi. Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam, Tursun Ali, Aziz Said, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ijodini bu o'ziga xos mantiqsizlikning mantiqli bo'laklari sifatida tekshirish fikrimizning asosli ekanini ko'rsatadi.

Mantiqiy mushohadadan qochish, g'alatilikka, so'z ma'nolari va shakliy o'yinlarga atay intilish hozirgi she'ri-

² Бретон А. Манифест сюрреализма. В книге «Называть вещи своими именами» —М.: 1986. ст.40.

yatimiz qiyofasini belgilaydigan omilga aylandi. Aqlga muvofiq xulosa chiqarish mumkin bo'lgan she'rlar bugungi adabiyot uchun eskilik sanalib qoldi. Jahon adabiyotidagi turli badiiy tajribalardan yaxshi xabardor o'quvchini bularsiz qoniqtirish mumkin bo'lmay qoldi. Shu bilan birga ko'pchilik shoirlar ham ijodiy yakranglikdan saqlanish yo'lini qidirishga kirishdilar. Bunday izlanishlar adabiyotni rangin she'rlar, betakror obrazlar va kutilmagan tashbihlar bilan boyitdi.

tushlarimni qabartirar oy
tushlarimning qadoqlari
yuragimga botmoqda³

Bir o'qishda, darhol anglab olinmaydigan, mantiqsizlikday tuyuladigan bu ifoda kishini she'r matniga chuqurroq kirishga, shoir nazarda tutgan badiiy mantiqni topishga undaydi. U o'quvchidan izlanishni, she'r paydo qilgan yuzaki ta'sir bilan kifoyalanib qolmaslikni talab qiladi. Zotan, bunday she'rlarda ilk hissiyot aldamchi, she'r mantig'ining libosigina bo'ladi, xolos. Uni qayta-qayta o'qigan, o'qiganlarini teran mushohada qilgan kishi mantiqsizday ko'ringan tasvirning go'zal mantig'ini topishi mumkin. Va bu jarayonda o'quvchi, hatto, shoir nazarda tutmagan haqiqatlarni ham anglab yetgan holatlar uchraydi. Shoirning tushlari (tishlari emas) nega

¹ Faxriyor. Ayolg'u. —T.: «Sharq» matbaa-kontserni, 2000. 156-bet.

qabaradi? U axir moddiy emas-ku? Latif ruhoniy tushunchani oy qay tarzda qabartirishi mumkin?

Shoir nazarida, oy – erishish mushkul bo‘lgan ulkan orzu. U bu orzusi to‘g‘risida, unga yetishish yo‘llari, ro‘yobga chiqqanda nima qilishi haqida uzluksiz o‘ylaydi. Butun fikri-zikrini shu o‘y band etgani uchun oy kechalari tushiga ham kirib chiqadi. Qabarish – uzluksiz takrorlanadigan zo‘riqish oqibati. Ko‘p yurgan oyoq, doim ketmonda ishlagan qo‘l qabaradi va oy ham qahramonning tushlariga kiraverib, ularni qabartirib yubordi. Qabariq doimiy bo‘lsa, qadoqqa aylanadi. Shu kabi oyga – go‘zal orzuga intilaverib, uni faqat tushdagina ko‘raverib, shoir ko‘ngli qabardi, qabarish qadoqqa aylandi. O‘sha qadoq shoir yuragiga botmoqda. She‘rda mazmun serqatlamligi bilan birga shakliy o‘yin ham borki, sezgir o‘quvchi uni oson ilg‘aydi. Ya‘ni qo‘ldagi qadoq shakli dastlab, qabariq ekanligida yarim oyga, qadoqqa aylanganda esa to‘lin oyga o‘xshab ketadi. Tush esa uxlaganda ko‘riladi, uyqu tungi hodisa, tunda zulmatga botgan dunyoning, tabiiy tarzda, shoir umidsizligining yagona yoritqichi — oy. Butun she‘rning serqatlam mantig‘i birgina «oy» timsoli atrofiga jamlangan.


Ruhning holatini aks ettirish uchun ramzlarga, mavhum ishoralarga murojaat qilayotgan Faxriyor, Tursun Ali, Bahrom Ro‘zimuhammad, Ulug‘bek Hamdam, Go‘zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ta‘sirida she‘rxonlarning ham badiiy didi noziklashib bormoqda. Ular she‘rdan axborot emas, ichkinlik, tuyg‘u

ifodasini emas, ishora, uning «parda ortidagi tasviri»ni izlay boshladilar. Shu tariqa, modern she'r shoir bilan o'quvchining birgalikdagi ijodiga aylanadi:

Kapalak sen qadar
baxtli bo'lsaydim
so'zlarning totini olib yashasam
so'zning yonog'iga qo'nolg'a qurib
asrasam
qanotimning soyasida o'z gulzorimni⁴


Kapalakning umri bir kun. Ammo u shu qisqa umrini dunyoning eng go'zal shakli, eng muattar bo'yi og'ushida gullar ichida o'tkazadi. Boshqa tashvishlardan u xoli. Shoirning istagi esa kapalak kabi qisqa bo'lsada, o'z gullari – go'zal so'zlar orasidagina yashash, u kabi har bir insonga xos maishiy tashvishlardan xoli bo'lish. Kapalakning gulbarglarga qo'nib, bir dam turishi shoir nazdida gullar yonog'idan bo'sa olishga, ular sharbatidan totishga o'xshaydi. Tasvir mantig'ini qarang: kapalak qanotlarida gulni eslatuvchi turli naqshlar bor, ya'ni u o'z gulzorini qanotlarida asraydi, ruhi intilgan tilak uning jismiga naqshlangan. Ayni vaqtda, kapalak gulzor uzra uchib-qo'nadi. Binobarin, gulzori uning qanotlari soyasida. Bunday baxtga muyassar bo'lishni dildan istagan shoira deydi: «so'zlarning yonog'iga qo'nolg'a qurib asrasam qanotimning soyasida o'z gulzorimni». Ammo buning iloji yo'qligini yaxshi tuygan shoira biroz o'kinch bilan orzu qiladi: «Kapalak sen kabi baxtli bo'lsaydim».

XX asr soʻngida, ayniqsa, Istiqloldan keyin ijodkorning oʻz ruhiyatiga, sof kechinmalari tasviriga eʼtibor kuchaydi. Bu sheʼriy nutqda mavhumlik unsurlari, serqatlam ishoralarning, mavjud shakliy izlanishlarning oʻrinishiga, bu holning, xususan, yoshlar ijodida koʻp uchrashiga olib keldi.

sahro bor
va unda men borman
yoʻqolgan beshikka belangan men
beshik 

Olam odam uni qanday koʻrishni istasa, shu tarzda namoyon boʻladi. Koʻngli huvillab, yolgʻizlanib qolgan shoir uchun ham dunyo – kimsasiz sahro. Borliq u va sahrodangina iborat. Ammo uni bunday mavjudlik qoniqtirmaydi. Yoʻqolgan beshik – yoʻqotilgan ibtido. Va undagi shoir boshqatdan dunyoga kelib, taqdirini oʻzgartirmoqchi, yoʻl qoʻygan xatolari oldini olmoqchi, oʻz olamini qaytadan idrok etib, qurmoqchi. Ayni vaqtda, beshik arab alifbosidagi «nun» harfini, unga belangan odam boshi esa harf ustiga qoʻyiladigan nuqtani esga soladi.

Modern sheʼr ramzga murojaat etish bilan shartlilikni taqozo etadi. Shartlilik esa hamisha ham quyilib kelgan ilhom bilan uygʻun emas. U, asosan, aql bilan oʻylab qilinadi.

Sulaymon nasi  istab keladi
hat

razzoq qarqʻalarning ortidan.

Sulaymon payg'ambarning hayvonot dunyosi tilini bilgani ma'lum. U o'zining nasiba topishiga vosita bo'luvchi qarg'alar ortidan boradi. Ammo qanday nasiba, unga nasiba kerakmi yoki nasihat?

Ko'rinadiki, o'zbek modern shoirlari ijodida fikrni ifodalashdan ko'ra, ruh manzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Mazkur she'riyatga kutilmagan avangard izlanishlar yot emas, lekin ularda milliy o'ziga xoslik sezilib turadi. Xususan, bu holat Faxriyor she'riyatining asosini tashkil etadi. Shoirning she'rlarini takror va takror o'qib ham ko'nikilgan yaxlit fikr va xulosani ilg'ab olish qiyin:

Hotamni sinagani

Arjuna

shahid bo'lgan Sinadan

quruq qaytar o'tinchi chol

bol-

tasi xurjunida

Birinchi va to'rtinchi misrani tushunish u qadar mushkul emas, ya'ni Hotami Toy va himmati unikidan ancha baland o'tinchi chol qissasi Alisher Navoiy hazratlarining «Hayrat ul-abror» dostonida bayon etilgan. Ammo ikkinchi va uchinchi misra o'quvchi uchun tarixiy ildizlarga ega bo'lgan badiiy jumboq: Sinada shahid bo'lgan Arjuna kim va uning yuqoridagi qissaga qanday aloqasi bor? Shu savollarga javob topmaguningizga qadar she'r mantig'i sizga ochilmay turaveradi. Shoir vazn, qofiya singari talablardan qochgani, an'anaviy shaklda bitgisi kelmagani

uchun shakliy o'yinlar qiladi. Buning ustiga, an'anaviy shaklga uning tuyg'ulari sig'maydi ham. Ko'nglidagi vazni, ichki musiqani bo'g'inlar, bir so'zdan iborat misralar yordamida ifodalashga harakat qiladi:

oy
tirnoq
ayol
zorlik¹

To'rt so'zdan iborat to'rt misra she'r. Aynan so'zga tanqislik she'rning ifoda siqiqligi, ma'no zichligi va tasavvurni to'la ishga soluvchi kuchini ta'minlagan. Oyning shakli tirnoqqa o'xshaydi. U tunda chiqadi, ayol oyni ko'rayapti, u bedor, demak kimgadir intiq. Va ayol oyga — tirnoqqa zor: u befarzand. Ayol kishi uchun eng katta baxt tirnoq — farzand. Onalik ayolning fitratida bo'ladi. Befarzandligidan bebaxt ayol kechalari bedor, butun olam unga shu tun kabi qorong'u tuyuladi va birgina oy tunni xuddi ayol ko'nglini miltirab turgan umid kabi yoritib turibdi. So'zni bunday o'ynatish, unga bu qadar ko'p va chuqur ma'no joylay olish o'zbek modern she'riyatining muhim belgilaridandir. Zotan, shu tufayli she'riy so'z o'zining dastlabki ma'nosidan yuksalib, izlab topish kerak bo'lgan sirli qiyofa kasb etdi. **«XX asr bu — mukammal texnik ma'lumotlar vositasida bunyod etilgan so'z saltanati. So'z borgan sari narsalarning**

¹ Faxriyor. Ayolg'u. —T.: «Sharq» matbaa-kontserni, 2000. 165-bet.

asl qiymatidan uzoqlashib, mustaqil ma'no kasb etayotir»¹.

O'zbek modern she'riyatning yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi, botiniy muntazamlilikni ta'minlovchi, she'riy nutq ta'sirini bir necha barobar kuchaytirib beruvchi yana bir jihati unda, ko'pincha, tinish belgilari va bosh harflarning deyarli qo'llanmasligidadir:

Tinish belgilari yo'qligi, grammatik qoidalarga rioya qilinmaganligi tufayli misralar ham, she'riy ohang ham omonatday tuyuladi. Bu bilan shoir o'quvchining zavq olish yo'siniga halal bermaydi, tasavvurini to'la ishlatishga undaydi, uni nuqta yoki vergul bilan chegaralab qo'ymaydi. Bu hol she'rdan shoir nazarda tutgan ma'nodan butunlay farq qiluvchi, hatto, uning aksi bo'lgan mazmunni ham chiqarish imkonini beradi. She'rni o'qiyotgan odam o'z ruhi, kayfiyati, tushunchasi, saviyasidan kelib chiqib, zarur ohang tanlaydi, o'ziga ma'qul tarzda qofiya topadi, qaysidir so'zni bosh harf bilan o'qiydi. Va bu o'quvchi badiiy didini tarbiyalab, tasavvurini uchgurlashtiradi.

Faxriyor she'rlaridagi mantiqdan tashqari, mavhum ruhiy kechinmalar tasvirida o'zbek modern she'riyati aql bilan anglab yetishning tor imkoniyatlarini ko'ngil bilan tuyish hisobiga kengaytirib berayotganligining yaqqol dalilidir:

Vido fasli — ayni namozgar
Kun qon qusar volalarimdan,
Muhabbatim aqldan ozgan.

¹ Андреев Л. Порывы и поиски. В книге «Называть вещи своими именами» — М.: 1986. ст 4.

Namozgar paytini kuzatmagan odam yo‘q, hamma ham kunning shu paytida atrof qizg‘ish shu‘laga belanishiga e‘tibor qaratgan. Ammo shoirning tiyrak nigohigina undagi qontalashlik bilan qalbini parmalyotgan tuyg‘u orasidagi aloqani ko‘ra bilgan. Qon ishlab chiqaruvchi va uni tozalab turuvchi a‘zo — jigar xastalanganida odam qon qusadi. Buning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin: zaharlangandan yoxud qattiq ezilgandan. Shoir tatigan ishq og‘usi jismini shu qadar zaharlab tashlaganki, oxirgi chora o‘lim. Vola – berilgan, maftun bo‘lgan ma‘nolarini anglatadi. Shoir maftunligida mujassam ishq dardidan zaharlangan kun bu azobga dosh bera olmay qon qusdi. Nega tong emas, tush emas, aynan namozgar vido fasli deyilmoqda? Odamlar orasida ildizlari islomga borib taqaladigan tushuncha bor: namozgar payti uxlash yoki shunchaki dam olib yotish ham bexosiyat sanaladi. Hatto, bemor odam ham suyab, o‘tqazib qo‘yiladi. Iloji bo‘lsa, namoz o‘qish tavsiya qilinadi. Nega? Chunki ayni shu damda insonnig ikki elkasidagi farishtalar o‘tgan kunning hisob-kitobini qilar ekan. Va shu payt uyquda, g‘aflatda bo‘lgan odam ishlari yozilmay qolishi mumkin ekan. Shoir ham majnunvash oshiq bo‘lishdan avval, birinchi navbatda, Olloh yaratgan banda. U o‘zining bandalik vazifalarini unutmasligi, ularga rioya etmog‘i darkor. Kunning namozgar payti hamma o‘zining qayg‘usini eyishi, ya‘ni gunohlarini kamaytirib, savoblarini oshirishi, Yaratganga yaqin bo‘lish imkonini qo‘ldan bermasligi intilishi kerak. Shoir shu bois namozgarni «vido fasli» ataydi.

She'r badiiyati, uning yo'nalishidan qat'i nazar, tasvir samimiyati, jozibali tili, shoirning adabiy, milliy, shaxsiy jihatlarini ifodalay bilishi bilan belgilanadi. Ijodkor o'zigacha mavjud bo'lgan barcha badiiy hodisalardan boxabar bo'lishi, shu bilan birga ularni takrorlamasligi ham lozim. Ishq, oshiqlik, hijronu visol haqida bitmagan shoirning o'zi yo'q. Barchaga xos bu umuminsoniy tuyg'ular tasvirida biror yangilik qilish shu bois mushkul. Chunki o'zgacha shakl an'anaviy mazmunning o'zgacha taqdimotini taqozo etadi. Shu kabi Faxriyorning «Suygulim» asari ham avvalo shakli bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi:

Suygulim, suy, gulim, suygu lim —
yuraklarim ko'zimdan toshar.
Meni yengib bormoqda o'lim,
seni esa qiynaydi yashash

«Sevgilim» ma'nosidagi «suygulim» so'zining uch xil shaklda qo'llanilishi uning ma'no qirralarini ham xilma xillashtirdi. Ko'z yosh deyish o'rniga «yuraklarim»ni keltirish bilan shoir his-tuyg'ulari yurakdan, ya'ni samimiy bo'lgani bois kuchli, jo'shqinligini bildiradi. Oshiq uchun yashash azobligi, qismati o'lim ekanligi adabiyotda ko'p qo'llangan ifoda. Ammo undan keyingi satr bunga ham o'zgachalik bag'ishlaydi: ma'shuqa nima uchun yashashga qiynaladi? Buni shu tarzda anglash mumkin: o'lim yengayotgan oshiq o'tgandan so'ng ma'shuqaning tirikligidan ne naf? U bosh-

qalar qatori oddiy qizga aylanib qoladi. Uni bosh-qalardan alohida ajratib turgan narsa oshiqning muhabbati edi. Demak, oshiq borligi uchun ma'shuqa bor va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi.

Kuymoq bo'ldi mening nasibam,
baxtiyorlik – sening qismating.
Baxtmi zomin bo'ldi, masiham⁷,
baxtimizga. Baxt musibati.

Seni izlab tentar xayolim,
ikki jahon ovorasiman.
Sen-chi yotsan. Baxtning ayoli.

Yuraklarim ko'zimdan toshar,
qismat bo'ldi ko'zlar qarosi.
Qoshlar aro ayriliq yashar.

She'ning birinchi misrasidagi bir so'z — «suygulim»-ning takror va turli shakllarda qo'llanganligi bejiz emas. «Suygulim» sevgili, suyukli yor, «suy, gulim» meni sev, gulim va «suygu lim» butun dunyo ishqqa to'la, chunki oshiqning va olamning mohiyati faqat sevgidan iborat kabi ma'nolarni anglatadi. **«Yuraklarim ko'zimdan toshar»** — shoir yuragini, nafaqat yuragini, butun borlig'ini to'ldirgan yurak ko'zdan yosh bo'lib chiqmoqda, shoirmi ishq yig'latdi

¹ Masiha — silovchi ayol. Iso payg'ambarning silab (mash qilib) o'liklarga ham jon baxsh etishiga ishora.

va «Ko'z – ko'ngil oynasi» deyishgani singari muhabbat, avvalo, ko'zda zohir bo'ladi. Shoirning: «**Meni yengib bormoqda o'lim, seni esa qiynaydi yashash**» shaklidagi zidlangan anduhi sababini anglash uchun «**Kuymoq bo'ldi mening nasibam, baxtiyorlik – sening qismating**» satrlarini bu misralarga bog'lab izohlash lozim. Ya'ni suygilisidan ayriliq oshiq uchun o'lim bilan teng. Shoir nazarida, tiriklikka mahkum, ishq yo'lida o'lolmaydigan ma'shuqa uchun yashash ham qiynoq. Shuning uchun ham baxtiyorlik qismatday tuyuladi. Oshiq faqat ma'shuqa xayoligina unga tegishli ekanligini yaxshi anglaydi: «Sen-chi yotsan. Baxtning ayoli». Chunki u – baxtga begona. She'ring so'nggi bandidagi

Yuraklarim ko'zimdan toshar,
qismat bo'ldi ko'zlar qarosi.
Qoshlar aro ayriliq yashar.

og'ir insoniy iztirob ildizi shunga kelib taqaladi. «Qismat bo'ldi ko'zlar qarosi» satri oshiq taqdiri ma'shuqa ko'zlariday qaro bo'lgani va shu bilan birga uni maftun etgan ko'zlarning qanchalar qora ekanligi e'tirofini anglatadi. «**Qoshlar aro ayriliq yashar**» satriga esa «Bizning qismatimizda abadiy ayriliq bor. Chunki ikki qosh bir-biriga qo'shilolmaganiday, biz ham bir-birimizga etisholmaymiz», degan xavotirli fikr yashiringan.

Bo'g'zimdan sirqirar tovush – qon,
Gul – mening eng so'nggi so'zimdir.

Ibtido, intiho ovushgan,
Muhabbat sen bergan to‘zimdir.

Men uni qadayman ko‘ksimga,
Yuragim tovondir – yorilar.
Sen meni sevmagin, o‘ksima,
Toshbag‘ir bo‘ladi parilar.

Men seni gunohkor etmasman,
Suyarman, kuyarman, boshimga
Etar ishq, men senga etmasman.

Yuragim tovondir – to‘layman
Oyligim, boyligim – lohimni.
Ko‘zimni so‘zimga ulayman.

Shoirning «Iqror» she‘rida ishq yo‘lida yuragi laxta qonga aylangan oshiq iztiroblari aks etgan. Lekin shoir tuyg‘ular ifodasini jo‘nlashtirish, she‘riy tasvirni soddalashtirish yo‘lidan bormaydi. Shuning uchun ham u holatini: «**Bo‘g‘zidan sirqirar tovush – qon**» tarzida ifodalaydi. Tovushning qon ekani, uning jaranglash yoki hirqirash o‘rniga «sirqirash»i sababi nimada? Shoir yurak holatini mahorat ila tasvirleydi. Yurak ishq yo‘lida qonga to‘lgan, ma’shuqa bergan azoblardan sirqiraydi, ishq azobi oshiq yuragini qonga aylantirgan. Shu bois bo‘g‘zidan otilib chiqayotgan narsa — qon... Chunki so‘z yurakning tarjimoni edi. She‘rda tilga o‘girib bo‘lmas ruhiy holat betakror ifodasini topgan.

Shoirning: «**Gul – mening eng so‘nggi so‘zim-dir**» tasviri zamiridagi ma‘noni izohlashga urinish kishi badiiy zakovatini oshiradi. Gul faqat chechaknigina emas, yorni ham bildiradi. Demak, oshiqning so‘nggi so‘zi ham ma‘shuqa. She‘rning ikkinchi bandidagi: «**Yuragim tovondir – yorilar**», so‘nggi bandda esa: «**Yuragim tovondir – to‘layman**» deyishi shoirning so‘zdagi tovlanish imkoniyatlarini qanchalar chuqur bilishi va his qilishini ko‘rsatadi. Tosh ustidan yalang yurgan tovon yorilib ketadi, uning qontalash yoriqlari egasiga nihoyatda azob beradi. Tovu yorilishi nihoyatda sekin bitadi. Ishq vodiysida aql, mantiq kabi himoyachilarsiz ojiz qolgan yurak u yerdagi kutish, hajr, ayriliq singari chaqirtoshlarni bosib yorildi. Yaralangan yurakdan silqib oqayotgan qon butun badanni to‘ldirgan. Dilidagisini tiliga chiqarishni istagan shoir shu bois ham «**Bo‘g‘zimdan sirqirar tovush-qon**» deydi. «Tovu» so‘zining ikkinchi ma‘nosi to‘lov. «**Yuragim tovondir – to‘layman**» deyish bilan shoir sevgining haqini faqat qon bo‘lgan yurak bilan to‘lash mumkinligini, chunki butun boyligi yaralangan, ozurda yurakkina ekanligini bildiradi. «Tovu» so‘zining bu xilda o‘ynatilishi natijasida shoir inja, ammo o‘tkir badiiy effekt yaratgan. She‘rdagi: «**Suyarman, kuyarman, boshimga Yetar ishq, men senga yetmasman**» shaklidagi anduh she‘r jozibasini yanada orttirishga xizmat qiladi: seni suydin, shu suygi o‘t bo‘lib borlig‘imni kuydirdi, kuyuklar jarohatidan ishq boshimga etdi — o‘ldirdi meni, ammo men senga yetmasman. «Boshimga etar ishq» birikmasini ko‘ngildagi ishq boshni ham, aqlu

shuurni ham egallab oldi tarzida anglash ham, bu ishq meni halok etadi, deb tushunish ham mumkin. O‘zbek modern she’riyatining bosh belgilaridan bo‘lgan bunday so‘z o‘yinlari o‘quvchilar hissiyot tizimi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish jihatidan e’tiborga loyiqdir.

She’r tahlil qilish – diqqat talab jarayon. Chunki she’rda aynan nima o‘quvchini o‘ziga tortganligini aniqlash, undagi joziba sirini kashf etish zarur. Bu esa oson emas, chunki biror narsaning nega yoqqanligini, u ayniqsa san’at turlariga doir bo‘lsa, izohlash mushkul. Faxriyorning mazkur she’ri, avvalo, fonetik xislatlari bilan o‘quvchi e’tiborini tortadi: undagi tovushlar takrori, unli va undoshlar ketma-ketligining uyg‘unligi, tovushlar ta’minlagan ritm izchilligi she’r o‘qilishini oson va yoqimli mashg‘ulotga aylantiradi. She’rdagi tovushlar uyg‘unligi bo‘rtib turmagani uchun o‘quvchi tovushlar ohangdoshligini «eshitmagan»i holda ular she’rda yaratayotgan uyg‘unlikni, tamkinlikni, go‘zallikni tuyadi.

She’r o‘n to‘rt misradan iborat. Birinchi va ikkinchi bandlarining juft va toq misralari o‘zaro qofiyalangan: «tovush – qon — ovushgan», «so‘zimdir — to‘zimdir», «ko‘ksimga — o‘ksima», «yorilar — parilar». Shaklan sonet janrida bitilgan she’rning uchinchi va to‘rtinchi bandlari uch misradan iborat bo‘lib, ularning birinchi va uchinchi misralari qofiyalangan: «etmasman — yetmasman», «to‘layman — ulayman». To‘g‘ri, «tovush– qon» va «ovushgan» so‘zlari u qadar uyg‘unmasday, ammo har ikkisidagi «u» unlisining talaffuzi boshqa tovushlardagi yengil nomutanosiblikni o‘ziga yuklangan badiiy ma’no yordamida yopib ketadi.

Tovushning qonligi va ibtidoiy intihoning ovushib ketganligidagi fojia aynan «u» unlisi orqali ifodalangan. She'ning birinchi misrasida shoir «sirqirar» so'zini qo'llash orqali o'quvchini azobli holat bilan tanishishga boshidanoq tayyorlaydi: «**Bo'g'zimda sirqirar tovush – qon**». Buni o'qiyotgan o'quvchining ko'ngli sirqiroqdan uvushib ketadi. Va sirg'aluvchi «s» undoshi yordamida she'r oxirigacha murakkab ruhiy holat yasaladi: **so'nggi so'zimdir, sen, ko'ksimga, sen sevmagin, o'ksima, seni etmasman, suyarman, senga yetmasman, so'zimga**. Va bu tovushlarning «sn» «sm» tarzidagi ketma-ketligi ham diqqatga sazovor: so'nggi – **sn**, so'zimdir – **sm**, sen – **sn**, ko'ksimga – **sm**, yana sen – **sn**, sevmagin – **sm**, seni – **sn**, yetmasman – **sm**, senga – **sn**, etmasman – **sm**. Faqat ikkinchi bandning to'rtinchi misrasidagi «o'ksima», uchinchi band ikkinchi misradagi «suyarman» hamda so'nggi – to'rtinchi band uchinchi misrasidagi «so'zimga» so'zlarida, garchi «s» tovushi qo'llangan bo'lsa-da, bu ketma-ketlikka rioya qilinmagan. «S» tovushiga yuklatilgan badiiy vazifaning yana bir muhim jihati shundaki, birinchi so'z «**sirqirar**», oxirgi so'z «**so'zimdir**», ya'ni «**sirqirar so'zimdir**» to'xtamida she'r mohiyati, she'ning yaralish sababi jamlangan. Shoir ko'nglimdagi ishq mening sirqiragan, azobli so'zimdir, deyish bilan «insonning o'zi uning so'zida namoyon» hikmatini tasdiqlagan. Bunday «shaklbozlik»ning yashirin holda kelgani, she'r mazmunini yanada ochishga, go'zal shaklning go'zal mazmun yaratishiga xizmat qiladi.

Faxriyorning «Osmon Yaratganning...» soʻzlari bilan boshlanadigan sheʼrida insonning dunyoga kelishidan maqsadi, uning zimmasiga yuklangan vazifalar zalvori teran tuygʻular ogʻushida loʻnda tasvirlangan:

Kuymoqqa dil berdi, suymoqqa – ayol.
Choʻkmoqqa tiz berdi, egmoq uchun – bosh.
Jon berdi ayolga etguday nisor,
Uni deb yonmoqqa – sham kabi hayot.
Yaralmay qolgani birgina visol

misralaridagi «*Yaralmay qolgani birgina visol*» kabi xulosalari bilan oʻzbek modern sheʼriyati asriy tuygʻularning bir qadar anʼanaviy ifodasidan, ayrim adabiyottanuvchilar daʼvo qilganlariday, butkul uzilib ketmaganligini, badiiy ifodada ham tarixiy xotira va tajribaga tayanilganini koʻrsatadi. Aslida ham sheʼriyat, u mumtoz yo zamonaviylikidan qatʼiy, eng ibtidoiy va barchaga xos tuygʻular: muhabbat, visol va hijron tufayli bunyod boʻladi, uni tuyish hamda ifodalash jarayonlarigina shaxsiy, yakka holda, oʻzgacha kechadi. Shoirning «Muhabbat – koʻksingga qamalgan havo» nomli asari ham ana shu fikrning toʻgʻriligiga dalildir:

Muhabbat – koʻksingga qamalgan havo,
chiqib ketolmaydi kabutar boʻlib.
Mening vujudimda yamalgan yurak
zangli hasratlarga yotadir toʻlib.

Sen kimni sevarsan havolar bilan
jannat ravzasidan enmagan bir gul?

Men senga yomg'irlar bo'lib elandim,
yulduzday poyingga sachradi ko'ngul.

Ujmoh bog'laridan uchmas kabutar,
men bir qul, ko'klarga tikilib toldim.
Davronlar o'tadi, karvonlar o'tar.

She'rd a sevgining qismat ekani iztirobli tarzda hazin ohangda kuylangan. Dastlabki jumla «**Muhabbat – ko'ksingga qamalgan havo**» tashbihini izohlashga urinish asarni teranroq tushunish imkonini beradi. Havo kabi ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutib bo'lmas va, ayni chog'da, havo kabi usiz bir dam ham yashab bo'lmas ulug' tuyg'u – muhabbat har qanday cheklovu me'yordan ozod. Uni o'z bag'riga olgani uchun yurak ham qafasday tuyuladi. Muhabbat qafasda yashay olmaydi. Chunki bu holda u o'zligini, asl xususiyati bo'lmish ozodligini yo'qotadi. Shoir ishq i ham ko'krak qafasidan ozodlikka chiqib ketishga intiladi, ammo bu imkonsiz. Havoning ko'krakdan «chiqib ketolmaydi kabutar bo'lib» tarzida ifodalanishi, misradagi jonlantirish bergan badiiy samara yuksak. Qush — inson ruhi timsoli. Muhabbat shoir uchun jon qushiga aylanib qolgan. U kabutar kabi ko'ksni – qafasni tark etsa, shoir hayotdan ko'z yumadi. Ayni misraning o'zini muhabbat ko'ksingdan joy olgan momomiz Havo tarzida izohlash va she'rni shundan kelib chiqib tahlil etish ham mumkin. Qahramonning: «**Mening vujudimda yamalgan yurak**» shaklidagi to'xtaming «**zangli hasratlarga**

yotadir to‘lib. Sen kimni sevarsan havolar bilan jannat ravzasidan enmagan bir gul?» misralaridagi so‘roqli iqroorda og‘ir insoniy iztiroblari ildizi aks etgan. Shoirning ma‘shuqasi buyuk momomiz singari jannat bog‘idan tushgan bo‘lmasada, havosi unikidan kam emas.

She‘rning ayni misralari boshqacha izohlanadigan bo‘lsa, o‘zini qafas devorlariga urib potirloyotgan kabutar – muhabbat oshiq yuragiga jarohat yetkazgan va shoir yuragi tug‘ilgandan ishq dardini torta-torta qadimiylik, ko‘hnalik kasb etgan. Muhabbatdan pora-pora bo‘lgan yuragiga yana shu muhabbatning o‘zi yamoq, u jon qushini yurakda ushlab, shoir tirikligini ta‘minlamoqda. Ko‘hna hasratlar ham yurakning ishq dardida to‘kkan yoshlari oqibatida zanglab ketgan. «**Sen kimni sevarsan havolar bilan Jannat ravzasidan enmagan bir gul?**» — ilohiy makonga doxil hech bir narsada g‘ubor, ta‘ma, kin yo‘q, u yerda barcha pok va musaffo, zero, hadisi shariflarda aytilganiday: «**Olloh pokdir va u poklikni sevadi**». Ma‘shuqaning kelib chiqishi – ilohiylikdan yiroq. Demakki, eng beg‘ubor tuyg‘u hisoblanmish muhabbat ham uning ko‘ngliga biror g‘araz, ta‘maga xizmat qilish uchun tashrif buyurgan. Bu yerda ochqich vazifasini «havolar» so‘zi o‘taydi, «**sen kimni sevarsan havolar bilan**» misrasini sen kimni kibr bilan sevasan yoki senda Havoga xos sifatlar bormi tarzida tuyish mumkin. «**Men senga yomg‘irlar bo‘lib elandim**» ifodasi «**yulduzday poyingga sachradi ko‘ngul**» tasviri yordamida yaqqolroq anglanadi. Qahramon nega yomg‘ir bo‘lib elanadi? Yomg‘ir qayerdan paydo

bo'ldi? Ko'zdanmi, ko'ngildan? Yulduz ko'kda bo'lmas-midi? So'ngan yulduz yerga tushardi. Demak, oshiq o'z ko'nglining o'limi haqida gapirayotir... Keyingi «**Ujmoh bog'laridan uchmas kabutar**» satrida «ujmoh» va «uchmas» so'zlari yonma-yon kelishining o'ziyoq misrada betakror poetik ohang paydo bo'lishiga olib kelgan. «Kabutar»ni pariruxsor ma'shuqa qiz, «ujmoh»ni oshiq yigit ko'ngli timsoli deya ham anglash mumkin.

Faxriyor ijodida bugungi o'zbek she'riyatiga hos asosiy jihat aks etgan: o'quvchi she'rni o'qibgina qolmay, ijro etishi, boshdan kechirishi lozim. Busiz she'rdagi ruhiy holatni tuyish mumkin bo'lmaydi.

Men ham sevgan edim mung'ib, emranib,
ko'z emas, ko'ngilning yoshlari bilan.
Yoshlar kor qilmadi, muhabbat – g'anim,
ko'ngilni sindirdi toshlari bilan.

Qofiyalarga unchalik e'tibor qilinmaganday tuyuluvchi bu she'r g'oyat ohangdor va bu poetik musiqa zamiriga chuqur ma'no yashiringan. Birinchi misradanoq she'rxon tushkunlikka tushadi: «**Men ham sevgan edim mung'ib, emranib**». Yunus Emroning «**Oshiq kishi g'arib bo'lar**» degan so'zlari bor. Ishq oldida barcha teng. Shohmi, gadomi ma'shuqaning bir nigohi, imosiga mahtal bo'ladi, uning har so'zini bajarilishi shart bo'lgan farmon tarzida qabul etadi. Va ishq oshiqdagi muhabbatdan bo'lak barcha tuyg'uni: kibr, quvonch, qayg'u, olimlik, hukmfarmolik, menlikni yo'q qilib tashlaydi. Oshiqning

haqi – faqat kutish. U yuragi ishq zo‘ridan tars yorilay deb, entikib, emranib sevadi. Shuncha ruhiy qudratga qaramay, oshiq – g‘arib. Zero, uning bor-yo‘qligi ma’-shuqa qo‘lida. «**Ko‘z emas, ko‘ngilning yoshlari bilan**» deydi u. Erkak juda ilojsiz qolgan, o‘limdan boshqa chora bo‘lmagan, g‘ururni yig‘ishtirib qo‘ygandagina yig‘laydi. Azoblar oshiqning ham jonidan shunchalar o‘tib ketganki, uning ko‘zi emas, ko‘ngli yosh to‘kadi:

Oynalari singan deraza – ko‘ngil,
unda na kulning, na gulning aksi bor.
Tindingmi, ko‘z yoshim, so‘ndingmi, ey dil?

Toshdan qattiq, shishadan nozik ko‘ngil – oshiq makon topishi mumkin bo‘lgan yagona qal’a. Muhabbat otgan toshlardan chil-chil bo‘lgan ko‘ngil parchalarida na gul – yorning, na-da kul – ishq olovida yonayotgan dilning aksi bor. Ishqning azoblaridan to‘kilgan yoshlar sevgi o‘tining o‘zini o‘chirib qo‘ymadimikan?

Faxriyor she‘riyati favqulodda tashbihlari bilan diqqatni tortadi. She‘riyatda oshiq timsoli sifatida kelgan bulbul uning qalamida o‘zgacha yuk tashiydi:

bulbulning tilini qamishga boylab
ko‘ksimga botirib jonim avaylab

Shoir nazdida qalam ma’shuqaga o‘z ishqini ifodalashi lozim bo‘lgan bulbul. Bu qalam ravon yurishi, go‘zal va muqaddas tuyg‘uni yurakdan tilga ko‘chirishi uchun

siyoh kerak. Ishq to'la ko'ngil – siyohdon, ko'ngildagi ishq esa – siyoh. Faxriyor so'zlarni o'ynatib yuboradi, yondashuv o'zgachaligi, hissiy anglash kuchli bo'lgani bois so'zlar ma'nogina, emas rang ham kasb etadi:

qaro tun katida ummedim falaj
o'ylarim o'yilar ko'zday na iloj

Kundalik nutqda oddiygina «umidim» deyiladigan so'z tovush orttirilishi va o'zgarishi bilan o'zgacha joziba, musiqiylik kasb etadi. Tun – zulmat, qop-qorong'u. Unda bedor shoirga faqatgina o'ylari hamroh. Ammo butun borliqni hukmi ostiga olgan sukut, harakatsizlik shoir o'ylarini ham falajlantirgan. Tun shunchalar quyug'ki, unga bermalol cho'zilib yotish mumkin. Uyqu – yarim o'lim. Shoirning ham faqat orzu-umidlarigina uyg'oq, demak tirik. Va «ummedim» deyish bilan uni shoir og'ir xastalik to'shakka mixlab qo'ygan odamning fojey holiga mengzaydi. Faxriyor «***o'ylarim o'yilar ko'zday na iloj***» deya imkoniyatlari beqiyos o'zbek tilini jilolantiradi. Ya'ni «o'y» – fikr, u «ko'z kabi o'yiladi» – yo'q qilinadi. Umid falaj, demak, harakatsiz, o'ylar o'yib olingan, demak o'ldirilgan, o'rni bo'shliq. Shoir ruhi cheksiz qarolik – zulmat og'ushida.

Faxriyor so'zning nafaqat ma'noviy, balki shakliy jihatlariga ham e'tibor beradi. U so'zni aytibgina qolmaydi, balki moddiylashtirib, o'quvchiga ko'rsatadi ham. She'ning bu xildaligi kishini o'ylashga undaydi, badiiy so'zdan olingan taassurotni xilma-xillashtiradi.

Oy haqida deyarli barcha shoirlar she'r bitgan. Lekin Faxriyor oy haqida gapiribgina qolmay, uni o'quvchisilariga ko'rsatadi ham:

nahotki

i h

l

o l

mening qobirg'amdan to'ragan

Hilol – uch kunlik yangi oy qobirg'a shakliga bir qadar o'xshaydi. Bu holat she'rxon tuyg'usini aniq tasavvurga aylantiradi. Modern she'riyat uchun vizuallik maqsad emas, u yangi, tutilmagan she'riy obrazlar yaratish vositasidir.

Faxriyor kutilmagan holatlarni tutilmagan obrazlar vositasida tasvirlaydi:

soching daryosida cho'milar aqrab
mening esa qo'llarim qaqrar

Shu paytgacha she'riyatda yor sochi qora tunga, shalolaga, dengizga, ikki o'rim bo'lsa ilonga o'xshatilishi an'ana tusini olgandi. Shoir qo'llari yor sochini silay olmaslikdan, ya'ni daryoga yaqinlasha olmaganidan tashna. Sochni silashga chayon halal beradi. Shu xavf oshiq qo'llarini tashnalikda tutib turadi. Qadimda qizlar sochlarini quloq yonidan qayrilma gajak qilib tushirib yurish-

gan. Shoir nigohi gajak va chayon nishi o'rtasida mustaraklik topa olgan va uni nihoyatda go'zal qo'llagan: soching daryosida cho'milar aqrab. Ma'shuqaga tegishli barcha narsa oshiq uchun «eng» degan chegaradan ham oshib ketgan, shu bois gajak uchi chayon nishi kabi o'tkir va halokatli. Shu bilan birga uni silamaslik oshiq nazdida kechirilmas gunoh. Shu bois chayon nishidan halok bo'lish xavfi ham oshiqni ko'ngli talpinib turgan havasdan saqlab qololmaydi:

Soching daryosida yuvmagan
gunohlarim kechirmas egam

Ma'shuqa sochi – suv to'la daryo. Gunohlardan suvda yuvilib poklanish lozim, poklanmaguncha Yaratgan uni kechirmaydi. Avvallari shunchaki go'zallik timsoli bo'lgan soch endi tavba, poklanish omiliga aylandi.

Baxtimmidi sochlaring – qaro,
O'rgan, suygan, surtgan ko'zimga?
Sochlaring – bir sim-siyoh sharor,
Baxtimizni kuydirar zimdan.

Go'zalning sochlari – sohibasiga ishqiq tushgan oshiq baxti singari qora. Baxt shu paytgacha adabiyotda yorug', nurli ranglarda, ko'tarinki so'zlarda ifodalanardi. Faxriyor baxtni qora rangda tasvirlash bilan poetik tasvirda yangilik yaratdi. Qiz sochlarini suyib, ko'zlariga surtib o'rgan shoir uchun u baxt hamda baxtsizlik timsoli.

Baxtligi — faqat orzudan, niyatdan amalga o‘tish imkonini berdi, baxtsizligi esa:

a) qop-qora sochlar rangi oraga tushajak ayrilichni eslatadi, hali yo‘q firoqqa aza tutayotganday taassurot tug‘diradi;

b) she‘riyatda hamisha band, tuzoq ifodasi bo‘lib kelgan, yomonlik ifodasi bo‘lgan qop-qora («sim-siyoh») rangli sochlar oshiqni kuydiruvchi olov sharsharadir.

Shoir tabiatga xos jihatlarni insonga ko‘chirganiday, «***dalalar ko‘k kiyar–ayoz qolar tul***», - deya odamga maxsus holatlarni tabiat manzaralariga ham o‘tkazib, badiiy obraz yaratadi. Bahorda dalalarni qoplagan ko‘mko‘k mayssa aksariyat shoirlar ijodida tirilish, jonlanish, shodlik ramzidir. Faxriyor uni o‘lgan qishga tutilgan aza, deb taqdim etmoqda. Qish o‘lgani uchun tabiat ko‘k kiygan.

Faxriyorning she‘rlari polifonikdir. Unda nechta so‘z mavjud bo‘lsa, o‘shancha ma‘no bo‘ladi. Buning ustiga, har bir so‘z kamida ikki ma‘no tashiydi, bir so‘zning, albatta, bir necha estetik vazifasi ham bor:

isnod yum yum yig‘latgan
malikaning yostig‘ini
quritdilar chiqarib
oftobro‘yaga

Buni malikaning yoshdan xo‘l yostig‘ini oftobda quritdilar tarzida ham, isnodli ish qilgan malikaning hayotini quritdilar, ya‘ni qatl etdilar deb ham, malikaning sirini hamma yoydilar shaklida ham tushunish mumkin.

Chunki malikaning xiyonati oddiy ayol xiyonatidan bir necha barobar ko'lamliroq, u butun saltanatga tegishli. Uning xoinligi mamlakatni, millatni sotish hisoblanadi.

Faxriyor tashbihlarni atay izlab topadi, she'rlarida hech kimga o'xshamaslikka, tasvir originalligi bilan boshqalardan farqlanib turishga intiladi va bunga mahorat bilan muvaffaq ham bo'ladi. «**Falakning ko'zlari mensirar – xunxor**» deydi u bir she'rida. Falakning ko'zlari nima ekan? Kun botishi oldidan qon kabi qizarib ko'rinadigan quyoshmi yoki tong otish oldidan nim qizil rangga bo'yaladigan oymi? Balki quyosh chiqishi yoki botishi oldidagi qontalash shafaq unga ko'zni, elas-elas ko'zga chalinadigan bulutlar esa qovoqlarni eslatgandir? Va nega bu ko'zlar shoir qoniga tashna? Ehtimol, har ikkisi: oy ham, quyosh ham, ya'ni kun va tun shoir niyatiga to'sqinlik qilayotgandir?

Faxriyor so'z sirlarini puxta o'zlashtirib, ularni o'zi istagan ko'yga soladi, o'ynaydi.

Men baxtli(k)man, peshonam sho'r, o!

Parvardigor, o'zing kechirgil

Men osiyni.

Mening yolg'iz gunohim – vergull!

Faqat tug'ilgan joyigina Baxt bo'lgan shoir taqdiri, afsuski, baxtiyorlikka to'g'ri kelmaydi. Uning qilgan yagona va ulug' gunohi vergul. Qiziq, bu tinish belgisida nima borki, shoir o'zini uni qo'llagani uchun osiy sana-moqda? Shu yerda she'r shakliga e'tibor qaratish lozim.

«Men baxtli(k)man, peshonam sho‘r, o!» jumlasidagi birinchi vergul olib tashlansa, «Men baxtlikman peshonam sho‘r» ma‘nosi kelib chiqadi, shoirning o‘zini ham qiynab yurgan mavhumlik: «Baxt» – makon va «baxt» – holat orasidagi ikkilanish barham topadi. Shoir noma‘lumlikda yashagandan ko‘ra, baxtsiz yashashni afzal ko‘radi. Chunki dunyoda noma‘lumlik, mavhumlikdan ulug‘roq azob yo‘q. Lekin «k»ning qavs ichida yozilgani, ya‘ni qahramonning «baxtlik» ekani yashiringani she‘r mohiyatini to‘la ocha olmaganligini ko‘rsatadi.

So‘z – ilohiy qudratga ega ne‘mat. ***«Unga ulkan mas‘uliyat bilan yondashish, so‘z aytishning javobgarligi qanchalar og‘irligini hamisha his qilish joiz. So‘z odamdir, so‘z qismatdir, so‘z millatdir. Shu bois ham jamiyatga, millatga qilinadigan zulm so‘zga zug‘umdan boshlanadi»¹.*** So‘z inson mohiyatini namoyon etish salohiyatiga ega bo‘lgani uchun, qanday so‘zlashiga qarab, odamning saviyasi, bilim darajasi, aql-farosati, xulq-atvori va u mansub bo‘lgan millat haqida hukm chiqariladi. Modern she‘riyat ijodkor ma‘rifati, milliy va jahon adabiyotidan nechog‘lik boxabarligi, falsafiy mushohada yuritish darajasi, tafakkur ko‘lami qanchalar keng va fikrlari nechog‘lik teranligidan dalolat beradi. Chunki bu she‘riyat quyilib kelgan ilhom natijasi emas, balki yangilik istagan ko‘ngillarning ehtiyojiga ko‘ra fikr bilan hissiyot aralash-

¹ Yo‘ldoshev Q. O‘zlik chaqinlari. «Turkiston» gazetasi, 2001 yil 3 avgust.

ligida qilingan badiiy tadqiqotdir. Adabiyot taraqqiyotining bu bosqichida hislar o'zining butun ifodalab bo'lmamas qirralari bilan she'rga ko'chganligining boisi shunda.

Inson qalbini to'la anglab yetish mumkin emas. O'zga u yoqda tursin, o'z tuyg'u va kechinmalarini izohlab berishga qiynaladigan odamga modern she'riyat keng imkoniyat beradi: odam va olam o'rtasida hech qanday chegara qolmadi. Yo'l ochib berilgan tuyg'ular oqimi ham tobora turfalashib, boyib bormoqda. Endi kapalakka aylanishni istagan shoir o'quvchida kulgi uyg'otmaydi, u buning sababini izlashga kirishadi. Yoki «**Bugun yulduzlarning dam olar kuni**» deya e'lon qilgan ijodkor ruhiy holati bulutli tun kabi rutubatli, zulmat, tushkun ekanligi tushuniladi. Faxriyor ham she'rda o'zini shunday bayon qiladi:

Men – yo'qsil oshiq
engil qilib kiyaman dilni
Dilim katta kelar egnimga
yerlarga sudralar dilimning bari

She'r tug'dirgan dastlabki tuyg'u — e'tirof. O'zini yo'qsil, faqiru bechora atayotgan oshiqning dili shunchalar ulkan ekanki, egasining jismiga katta kelib, hatto, unguri yerga tegib ham qolibdi. Tuyg'udan so'ng tushuncha keladi. Darhaqiqat, tuzukroq o'ylab ko'rilsa, oshiqda dildan bo'lak yana nima, qanday boylik bo'lishi mumkin? U qo'lidagi barcha narsani ishq yo'liga qurbon qilgan, faqat dilnigina qoldirgan, chunki unda ishq yashaydi.

Kiyadigan kiyimi, yeydigan taomi, hordiq chiqaradigan joyi, ranjli hayotidagi yagona tirgagi — dil. Balki uqubatlar tufayli ozib, jismi kichraygani uchun dil oshiqqa katta kelar, balki undan qaynoq ishq joy olgani uchun dil oshiqni ko'mib yuborar. Buning ustiga, katta qalb-largina muhabbatga makon bo'ladi degan qanoat ham bor-ku! Nima bo'lganda ham, o'zining yagona boyligiga oshiq bee'tibor qaraydi **«yerlarga sudralar dilimning bari»**. Lirik qahramon yurakni juda moddiy, xuddi bir unguri erga sudralgan kiyimday tasavvur qiladi. Uning uchun butun olam va o'zi ham ma'shuqa yodidan iborat.

She'r — shoirning mohiyati. Shoir qo'llagan har bir so'z, ularning joylashtirilish tartibi, hijolar soni — bularning barchasidan ijodkor intellekti, kechmishi, tafakkur tarzi, shaxsiyati, his-tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda, shoir botini haqida bexato tasavvurga ega bo'lish mumkin. **«She'r ijodkor tasavvuridagi badiiy go'zallikning moddiy ko'rinishidir, u shoir iste'dodining inkor etib bo'lmas muvafaqqiyatidir, shoir irodasi, fikri, tuyg'ularining namoyon bo'lishidir. She'r shoir iste'dodining chinligi va kuchidan dalolat beruvchi badiiy fikr shaklidir»¹**.

Shoir maishiy turmushda hamma tomonidan har kuni ishlatiladigan so'zlarga chuqur va kutilmagan ma'nolar joylay biladi hamda ularni shunday o'rinlashtira oladiki, natijada betakror ruhiy manzara yuzaga keladi:

¹ *Āōī èĕ, Í. Àí àòì ì èÿ ñòè ôî ôâî đáí èâ. —Moñêâà: «Ī đî ñââù àí èâ»*, 1990. ñò. 197.

Endi men kirmasman tushning tushiga,
umid mendan umidin uzsin.
Oq qilaman ko'ngil qushini
So'zsiz.
Hasratlarim yovvoyilashar,
Alamlarim chekar o'zini.
Yurak zindonidan ta'qiqlar osha
Men ozod etaman «sevgi» so'zini.

Tush ko'rish – odamga xos holat. Shoir tushning tushiga kirmasligini e'lon qilish bilan tush ko'rishni tushga tegishli qilib qo'yimoqda. Umid ham bani odamga maxsus go'zal tushuncha, ammo Faxriyor tuyg'ularga emas, tuyg'ular unga bo'ysunishini, uning ixtiyorida ekanini bildirib «umid mendan umidin uzsin» deydi qat'iy. Yuqorida ham ta'kinlanganidek, ko'ngil qushi — jon. Nima yuz berdiki, jon odamni tark etish o'rniga, shoirning o'zi uni haydab solmoqda, hech bir izohsiz jonidan yuz o'girmoqda? Buning sababi keyingi bandda ma'lum bo'ladi. Shoir hammadan, hatto, o'zidan ham yashirgan «SEVGI» so'zini yurak zindonidan ozod etib, bu gavharni butun olamga namoyon qilmoqchi. Shuning uchun ham uning hasratlari dehqon qaramagan o'simlik kabi yovvoyilashib ketgan. Shu bois alam chekish ham alamning o'ziga qolgan.

Har bir ijodkor o'zidagi ruhiy holatlarni aniqroq etkazib bera olish uchun qo'llayotgan tili nozikliklarini puxta egallagan bo'lishi zarur. Busiz o'zini anglatish, tuyg'ularini so'zda namoyon qilish imkonsiz. Faxriyor ana

shunday ijodkorlardan. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos badiiy hodisadir. Shoir she’rlarida so‘z o‘zining qudrati, shiddati, jozibasi bilan to‘la namoyon bo‘ladi. U so‘zni jonlantiradi, tuyg‘ularni nafaqat his etish, balki ko‘rish imkonini ham beradi:

Ilon —
dunyodagi eng kichik,
uzunligi bir quloch daryo.

...Oqib ketayotgan ilon uzunligini
o‘zi bilan olib ketar hamisha...

She’riyatda ilondan obraz sifatida foydalanish kamchil hol. U arqonga, chilvirga, satanglar qoshiga o‘xshatilardi. Lekin birinchi bor daryoga o‘xshatilmoqda. Oftobda daryo suvining jimirlab oqishini va ilonning bilanglab sudralishini ko‘z oldingizga keltiring. Daryo uzunligi bir necha ming chaqirimlarga etadi, ammo ilonning davomi, izi yo‘q, faqat qumdagina bilinar-bilinmas chiziqlar qolishi mumkin. G‘aroyib, ammo mantiqli o‘xshatish.

Har qanday badiiy asarda birinchi navbatda tirik odamlar, tirik tuyg‘ular harakat qilishi kerak. Shundagina asardagi tug‘yonlar o‘quvchi qalbiga ko‘chib, o‘qib bo‘lingandan keyin ham davom etadi. Tiriklik — tabiiylikni, tabiiylik esa asar o‘lmasligini ta’minlaydi. Faxriyor tuyg‘uni tuyganicha bayon etadi:

Daraxtlar uzlatgir bog‘lar,
Adirlarda yashil izdihom.

Yuraklarda ishqlanar dog'lar,
Musibatlar arir – kuz degan...

Qishda barglari to'kilib, uzlatga chekinganday bo'lgan bog'lar ko'klam kelishi bilan barg chiqarib, kurtak yozib yana daraxtga aylanadi. Qiru adirlarni yam-yashil maysalar qoplaydi. Chiqayotgan sanoqsiz maysalar – yashil izdihom. Yurakda hijronu azoblardan qolgan dog'lar bahorning qitiqlashidan uyg'onib, «ishqlanadi» – muhabbatga asir bo'ladi. Tilimizda bunday so'z yo'q edi. Lekin yaratilgani qanchalar yaxshi.

Maysalarning erir qiyoyq tilida
Toshlar novvot misoli.

Qiyoyq – o'jizgina maysaning nozikkina bargi. Lekin u o'zidagi yashash ishq sabab xarsang toshlarni novvotday eritadi.

Qo'zigullar quyoshni emar,
Ilon kabi izg'ir pechaklar.
Yalangoyoq turar – boy emas –
Pullariga kuygan chechaklar.

Quyosh nurlaridan butun tabiat, jonliyu jonsiz borliq – birday bahramand. Ammo qo'zigulni ta'kidlash bilan shoir o'quvchining qo'shimcha ma'noga ham e'tibor qaratishini istagan: «emar» sifatdoshi hammadan ko'ra «qo'zigul» qo'shma so'zining birinchi qismi «qo'zi»ga ko'proq mos keladi. Shoir nazarida, quyosh nurlaridan

bahra olayotgan qo‘zigul ona sutini emayotgan qo‘zi-choqqa mengzaydi. Poyasini tuta olmay yer bag‘irlab o‘sadigan pechaklarning o‘zidan baquvvatroq o‘simliklarga chirmashib o‘sishi unga ilonning yerdagi harakatini eslatadi. «*Ilon kabi izg‘ir pechaklar*» misrasini o‘qiboq ko‘z oldingizda maysalar orasidan bilanglab sudralayotgan ilonga o‘xshab o‘sayotgan pechak gavdalanadi. Barchaga tanish, barcha bilgan va shaxsan guvoh bo‘lgan holatlarning butunlay notanish, o‘zgachaligi bilan go‘zal ifodasi.

Milliy mumtoz adabiyotdan ham, jahon she‘riyatidan ham yaxshi xabardor, shakliy san’atlardan o‘rni bilan foydalana oladigan, dunyo nazmidan bir ko‘p go‘zal tarjimalar qilgan shoir she‘rlarida o‘zbekka xos xususiyatlarning inja ifodasini saqlay olgan:

Erimas uning ham boshidagi qor.

Yelkasiga tirmashar
nevarasi alpinist kabi

Butun boshli xonadon
turar unga suyanib...

Birnchi misradanoq yillar sochini oqartirib yuborgan oqsoqol ko‘z oldingizga keladi. Nega kampir emas? O‘zbek xonadonining tog‘i, demakki, tirgagi bo‘lish faqat erkakka maxsus. «*Erimas uning ham boshidagi qor*» — asriy cho‘qqilardagi abadiy qorlar kabi bu oqargan boshdagi qorlar qayta erimaydi, soch qoraymaydi. Erimas qor so‘zlaridanoq o‘xshatish toqqa, gap esa erkak

kishiga taalluqligi ayonlashadi. Ota uchun o'z bolasidan ham ko'ra nabira – shirin. Uning har qanday aybi kechiriladi, nabiraga hamma narsa mumkin. Bolakayning bobosi yelkasiga osilib o'ynashi tasvirini yillar ham kuchini yemira olmagan shu azamat qoyani zabt yetishga ahd qilgan alpinistga mengzash bilan shoir tanish holdan o'zgacha manzara yarata biladi. «**Butun boshli xonadon turar unga suyanib**» — qanchalar o'zbekona ifoda, holatning izoh talab qilmas tasviri!

«**She'r nutqqa estetik zavq uyg'otadigan go'zallik baxsh etadi. Bu go'zallikni mohirona tanlangan so'zlar va ritm uyg'unligi ta'minlaydi**»¹. Demak, har bir shoir oldida o'quvchiga zavq bag'ishlaydigan va uni lol qoldiradigan so'zlarni tanlash hamda ularni bir-biriga uyg'un keltirish vazifasi turadi. She'rda kechayotgan jarayonni o'quvchi ko'rishi, tinglashi va tuyishi lozim. Buning uchun shoir his-tuyg'ularni aniq va zich, eng asosiysi, jonli qilib she'rga ko'chira olishi lozim. Faxriyorning ijodi har jihatdan bu talablarga javob beradi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek modern she'riyatidagi yangilanishlarning mohiyati yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbek modern she'rlaridagi shakliy o'zgachalik ma'no teranligini ta'minlashga qaratilgan.

2. Yangilangan o'zbek she'riyatida so'z xususilashtirilgan, ya'ni shoir yuklagan ma'noni ifodalaydi.

¹ O'qim o'qim. A'ni o'qim o'qim o'qim o'qim. —M.: «I'ni o'qim o'qim o'qim», 1973. n. 48.

3. Yangilangan o‘zbek poeziyasida vizual she‘rlar ko‘payib bormoqda, lekin u maqsad emas, yangi, tutilmagan poetik obrazlar yaratish vositasidir.

4. Modern she‘riyat poetik qonunlardan ko‘ra, ijodkor ko‘ngli mayllariga bo‘ysunadi.

5. Hozirgi o‘zbek modern she‘rlarida so‘z, musiqa va harakatning, ya‘ni tasvirlanayotgan holatni o‘quvchiga ko‘rsatish, eshittirish va his qildirish uyg‘unligi hamda muntazamligiga erishib borilayotgani uning badiiy ta‘sirini oshiradi.



CHIN SHE'R TAROVATI ¹

Oybek she'riyati chog'dosh ijodkorlardan o'zgacha tarovati bilan ajralib turadi. Buning sababi uning asl she'rlarida tuyg'u samimiyati yaqqol namoyon bo'lishida. U eng dastlabki she'rlaridayoq zamon kishisining tuyg'ularini oldindan mavjud bo'lgan poetik qoliplarga solmay, tuyulganiday ifodalashga urindi. Shuning uchun ham Oybekning she'rlari bir nafas bilan o'qilmaydi. Shoirning ruhini tuymagan kishi uning she'rlarini o'qiyolmaydi yoki o'qisa ham zavqlan olmaydi. She'ring musiqiy ohangdorligiga, qo'shiqday kuylanishiga ko'nikib qolgan o'zbek she'rxoni Oybek she'rlarini anchagina qiyinchilik bilan idrok etadi. Ko'klam bulutiday yengil so'zlardan tashkil topgan she'rlar zamiridagi toshday zil estetik zalvor kishini hayratga soladi.

Bizga Oybek she'r yozmaydiganday, balki ko'nglini bayon qilib, kayfiyatini manzaralash tiradiganday tuyuladi. Shuning uchun ham uning asl she'rlari ijtimoiy da'volaridan yiroqdir. Ta'sirchan qalbli san'atkor bo'lgani uchun ham Oybek olam va odamning turli holatlaridan tug'ilgan hayratlarini she'rga soladi. G'oyat o'ziga xos shaxs ekani sabab uning poetik chizgilari ham hech kimnikiga o'xshamaydi. Oybek nazmining ravon musiqiy, sayqallangan

¹ Maqola adabiyotshunos Qozoqboy YO'LDOSH bilan sheriklikda yozilgan.

silliq bo‘lishiga intilmaydi. U o‘z tuyg‘ularini bor yovvoyiligi, sarkashligi bilan ifodalashga urinadi. Bu hol uning she‘rlariga o‘zgacha bir tarovat baxsh etadi:

Kun botdi... Og‘ochlikda qizil shol
Yellar bilan bir o‘ynadi, so‘ndi.
Borliqni qoplab oldi
So‘ngra ko‘lkali xayol.

Tuyg‘u samimiy va ifoda tabiiy bo‘lgani bois oddiygina tabiat manzarasida inson ruhiy holati ham aks etadi. Botayotgan kunning qip-qizil shafag‘ini og‘ochlik yelkasiga yopilgan yopinchiq-sholga o‘xshatish tasvirga biroz erka insoniylik baxsh etadi. Og‘och yaproqlarining yelda yengilgina titrashi qizil sholning hilpirashiga o‘xshaydi. Bu holat uzoq davom etmaydi. Chunki g‘urub qisqa kechadi. Ma‘lumki, kun botayotganda soya uzayadi. Butun borliqni egallab olgan qorong‘ilik zulmat emas, balki og‘ochlarning uzaya-uzaya tunga aylangan soyasi. Qorong‘ilikda daraxtlar xayoliy tus kasb etishadi. Real bu dunyoning narsasiga o‘xshamay qoladi. Mana shu jihati tufayli ham tun odamning fantaziyasiga zo‘r ozuqa beradi. Ko‘pchilik ijodkorlarning asosan shu vaqtda ishlashida ham ichki bir hikmat bor. Oybek tabiatan yolg‘izlikka intiladigan, odamoviroq kishi o‘tgan bo‘lishi kerak. Chunki shunday odamgina tabiat bilan astoydil tillasha oladi. Shunday odamgina atrofidagi minglab kishilar orasida ko‘nglini daxlsiz saqlay biladi. Uni faqat o‘zi singari chinso‘z, himoyasiz, yolg‘iz tabiatga ochadi. Shuning

uchun ham tabiatning har bir ko'inishi uni muvozanatdan chiqaradi, hayajonlantiradi, kutilmagan tashbehlar keltirib chiqaradi: "**Qarshimdan suv oqardi Ma'yus, yetim qiz kabi**". Sokin oqayotgan tiniq suvning odam ko'ziga tik qaray olmaydigan, o'ksiz, sig'indi qizga o'xshatilishi she'riyat tajribasida bo'lmagan. Odatda, qizning suluvligi, yuzining tiniqligi suvga o'xshatildirdi. Lekin suvning qizga o'xshatilishi ayni o'rinda eng munosib, eng chin va harakatdagi jonli poetik manzarani yuzaga keltirgan. Oybek asl she'rlarida hamisha o'zini, o'z ko'nglini izlaydi. U bunday o'rinlarda muammoni qofiyaga solmaydi, she'ring texnik jihatlariga ortiqcha e'tibor qaratmaydi. Shoir qofiyadan musiqa chiqarmaydi, balki tuyg'uning musiqasini tutib, uni o'quvchiga yuqtirishga urinadi:

Hamdardimdi kichik soz
Kezdim men yoppa-yolg'iz:
Atrofdagi yo'qdi ovoz,
Borliq uxlardi g'amsiz

She'rdagi "hamdardimdi", "yo'qdi" so'zlarida "edi" to'liqsiz fe'lining "di" shaklida o'zidan oldingi so'zga qo'shib kelishi asarga siniq, tushkun kayfiyat baxshida etish bilan birga yaqin kishisiga ko'ngil dardlarini aytayotganday odam holatini ham ifoda etgan. Xuddi o'zidan katta odamga tilini chuchuklantirib shikoyat qilayotgan boladay. Shoir panoh tortgan, taskin topmoqchi bo'lgan tayanch ham nochor - "kichik soz". Ya'ni, ushoqqina, dardini aytgandan ko'ra, uning dardiga malham bo'lish

o‘rinli tuyulguvchi nay. Ammo shu ko‘rimsizgina sozdan chiqayotgan hasratli va mungli nola odamni yolg‘izlikdan qutqarib, yolg‘izlikka duchor qiladi. Nay yordamida odam tirikchilik muammolarini unutishi mumkin. Jonli so‘zlashuv tiliga xos "yoppa-yolg‘iz" so‘zi shoirning ham jismonan, ham ruhan yolg‘iz ekanligiga urg‘u beradi. Shoirning g‘alayonga kelgan ko‘ngli, ezgin ruhi bilan hech kimning ishi yo‘qligini ifodalovchi "Borliq uxlardi g‘amsiz" satri yolg‘izlik darajasini yanada kuchaytiradi. Oybek o‘z dard-kashini jamiyatdan emas, jonsiz predmetlar orasidan, tabiatdan izladi. Qarshisidan oqayotgan suvning ma‘yus, yetim qizga o‘xshashi sababi ham asli shoir ko‘nglida, ruhiy holatidadir. Odam olamni o‘z kayfiyatiga bog‘liq tarzda idrok etadi. "Yomon havo bo‘lmaydi, yomon kayfiyat bo‘ladi", deganlariday suv ham, og‘ochlik ham, soz ham o‘z holicha achinishga loyiq emas, ularning ayanch mohiyat kasb etishiga sabab shoir kayfiyatidagi ezginlikdir. Oybek kayfiyatning manzarasi har qanday ijtimoiy muammodan ko‘ra muhimroq, salmoqliroq, abadiyroq ekanini juda erta anglab yetdi. Bunda uning Kunbotish adabiyotidan yaxshi xabardorligi va simbolistlar ta‘sirida bo‘lganligi muhim o‘rin tutadi. Oybek she‘r o‘z holicha hech qanday izoh, oqlov, tushuntirishga muhtoj emasligini, u bor va yaxshi bo‘lgani uchungina yashashga hamda idrok etilishiga haqli ekanligini teran anglab yetgan shoir edi. She‘rning maqsadi ham, vazifasi ham o‘zidan iboratligi unga ayon haqiqat edi. Shuning uchun ham Oybek Cho‘lpon ijodining badiiy qimmatini hammadan ko‘ra teranroq angladi va uni himoya qilishga o‘zida kuch topa bildi.

Ko'rkam adabiyotning tuyg'ular, sezimlar, kayfiyatlar o'yini ekanini erta anglab yetgan Oybek ko'rsatishdan ko'ra im qoqish, aytishdan ko'ra ishora qilish badiiyat uchun muhim ekanini yaxshi bilardi. Baqirmagan odam o'ylash imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun shoir ijodida umrning o'tkinchi, hayotning omonat, insonning ojiz ekani aks etgan tushkun she'rlar uchraydi. Holbuki, "qasd etgan qal'asini olmay qo'ymaydigan" kommunistlar zamonida odam tushkun kayfiyatda bo'lishi, yig'lashi, umidsizlanishi mumkin emasdi. Ko'nglidan ayrilgan odamda ruhiyatga daxldor hech narsa bo'lmaydi. Bino-barin, unday kimsa umidsizlikka tushmaydi. O'zi, hayoti haqida o'ylaydigan chinakam odam uchun tushkunlik mutlaqo begona emas. Shu jihatdan Oybekning quyoshga murojaat tarzida bitilgan "Sen g'urubning oltin qo'llaridasen" deb boshlanadigan she'ri xarakterlidir. She'rda dunyoga tamomila o'zga nazar bilan qaraydigan hamda o'zi ko'rganlariga o'zicha ma'nolar yuklay oladigan shoir iqtidori namoyon bo'lgan:

Sen g'urubning oltin qo'llaridasen,
Tabassuming, quyosh, so'nar ohista.
Dala va qirlardan tiniqlik uchar.
Suvlar oynasiga shom qora surkar,
Xayolning men sokin cho'llaridamen.

She'rda ixtiyori g'urubda bo'lgan quyosh holati juda jonli va ta'sirli manzaralashtirilgan. G'urub - tunning kirish payti. Demak, quyosh tunga taslim bo'layotir. Lekin

uning qo'llari zulmatga cho'mmagan, balki "oltin". Qizig'i shundaki, "oltin"lik g'urubning emas, balki ohista so'nib borayotgan quyoshning xossasi. Dastlabki ikki misrada tasvir mavhumroqday. Uchinchi satrda esa u tamomila konkretlik kasb etadi - "**Dala va qirlardan tiniqlik uchar**". Zotan, kech qorayishi bilan atrof xiralashadi. Buni shoir to'rtinchi qatorda yanada kuchaytiribroq ifoda etadi: "**Suvlar oynasiga shom qora surkar**". Oyna yorqinlik va yaltiroqlik belgisi. "**Suvlar oynasi**" esa, ulkan yorug'lik va yaltiroqlikdir. Ammo shom unga qora surkaydi. Xuddi tutilgan quyoshga qarash uchun tayyorlanadigan qora oyna kabi. Shoir tabiat aynan shunday, holat men tasvirlaganday, vaziyat she'rdagiday deb da'vo qilmaydi. Balki, band oxirida tasvirning aniqligiga shubhasi borday: "Xayolning men sokin cho'llaridamen",- deb qo'yadi. Xayolning cho'li bepoyon. Unda adashib ketish, sarobga yo'liqish hech gapmas. Shoir hech kimga hech narsani isbotlamoqchi emas. Ko'ngil dardini to'kmakda xolos.

She'ning ikkinchi bandida shoirning dardi yanada shaxsiylashadi va mavhumlashadi. Holbuki, shaxsiylashgan dard konkretlashishi kerak edi. Lekin shaxsiy dardning ildizi ochilmay, noaniqligicha qolaveradi: "...**Sinadi ichimda umidning tosi, Qalbmni yirtadi uning sadosi**". Hushyor o'quvchi umidning tosi nimadan sindiykin deb o'ylay boshlaydi. Shoir olamda, odamning o'zida ro'y berayotgan va izohlab bo'lmaydigan nozik hodisayu holatlarni shu tariqa chizadi. Shu holatni tuydirish, shu haqda o'ylatishning o'zi poeziyadir. She'ning:

"Yuramen, oqshomga singadi izim" tarzidagi so'nggi qatori tashiydigan mazmun o'z-o'zidan salmoq kasb etadi. Uni har bir o'quvchi o'z estetik yo'nalganligi darajasidan kelib chiqib, umididan ayrilgan odam holati, ezgulikni qo'ldan bergan shaxs kayfiyati va h.k. tarzida izohlashi mumkin. Chinakam she'rda berilgan hadlar bir xil bo'lgani holda yechim ko'p bo'ladi.

Oybek ijodida yuqorida to'xtalanganlar kabi va **"Tosh ekan boshim, hech yorilmadi - yog'ildi ming tosh"** singari turlicha talqin etiladigan, demakki, o'quvchilarini o'qishgagina emas, balki ijod qilishga, ya'ni asar zamiridagi haqiqatlarni chaqib olishga undaydigan she'rlar anchaginadir. Shoirning sirtidan qaraganda jo'ngina ko'rinadigan: **"Yo'lni qir, dalaga sol, Gul, lolani taqib ol, Bahor chog'i o'ynab qol, Dilga bo'shliq to'lmasin"** satrlaridagi xalq qo'shiqlariga o'xshovchi o'ynoqi ohang, ravon ifoda, buyruq shaklidagi "sol, ol, qol" tarzida qofiyalangan she'rlarida ham ko'ngil holati aks etgan. Dildagi bo'shliqni quvonch egallashi kerak, chunki dunyodagi hech bir narsaning o'rni bo'sh qolmaydi, o'rniga, albatta, boshqa narsa keladi. Shu bois hasrat kelmasidan burun dilni shukronalik, quvonch bilan to'ldirish kerak. **"Hayot she'rin sezaylik"**, - deydi shoir va she'rdan hayot qidirish emas, balki hayotdan she'r izlash, uning jozibasi, tarovatini tuyish, shundan zavqlanib yashash kabi sezimlarni ifoda etadi.

MUNDARIJA

Ezgu an'ana.....	3
Mohiyatga doir bir necha so'z.....	5
O'zbek modern she'riyatining genezisi	11
Poetik yangilanishlar mohiyati	44
Chin she'r tarovati	80



MUHAYYO YO'LDOSHEVA

YANGILANISHLAR MANGULIGI

Adabiy tadqiqotlar

Muharrir: *Bobur G'iyosov*

Rassom: *Nazokat Boltaboyeva*

Badiiy muharrir: *Iqbol Abdurazzoqova*

Texnik muharrir: *Nodir Svonov.*

Nashriyot litsenziyasi. № 181. 08.12.11. Terishga 16.09.2011 da berildi. Bosishga ruxsat 02.12.2011 da berildi.

Bichimi 70x90 $1/_{32}$. Ofset bosma usulida bosilda.

«Academ» garniturası. Shartli b.t. 3,22. Nashr-hisob t. 3,5.

Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma № ____.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy.

Tel: (8371) 245-89-24.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.